

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO DAVLAT
UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“San’at” kafedrasi

**5140900-Kasb ta’limi (5211200- Amaliy san’at) ta’lim yo’nalishi
bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: *Ganch o’ymakorligida ijodiy kompazitsiya bajarish
texnologiyasi***

Bajaruvchi:

4 “K”-guruh bitiruvchisi

F. F.Nurullaev

Ilmiy rahbar:

San’at kafedrasi katta

*o’qituvchisi **Sh. Sh. Bakaev***

Taqrizchi:

San’atshunoslik fanlari

*nomzodi **B.Bo’ronov.***

Kafedra mudiri:

Pedagogika fanlari nomzodi

*dotsent. **B.X Madrimov.***

Fakultet dekani:

Psixologiya fanlari

*professori **Sh.R.Barotov***

Buxoro- 2014

Mavzu: Ganch o'ymakorligida ijodiy kompozitsiya bajarish texnologiyasi

Reja:

Kirish;

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati tarixi va mustaqillikdan keyingi rivojlanishi.

I.BOB. Ganch o'ymakorligi san'atining milliy me'morchiligimizda tutgan o'rni

- 1.1. Ganch o'ymakorligi san'atining tarixi
- 1.2. Ganch o'ymakorligi maktablari.
- 1.3. Interer va ekstrerda ganch o'ymakorligi kompozitsiyalarini qo'llash.
- 1.4. Ganch o'ymakorligi san'atida rangshunoslikning muhimligi.
- 1.5. Ganch o'ymakorligida ishlatiladigan xomashyolar.

II.BOB. Ganch o'ymakorligi san'atidan foydalanib intererni bezatish, ishlatiladigan naqsh turlari va kompozitsiya chizishning asosiy qoidalari.

- 2.1. Kompozitsiya haqida asosiy ma'lumotlar.
- 2.2. Kompozitsiyada yorug'lik, nur va soya.
- 2.3. Kompozitsiya tuzishda ishlatiladigan naqsh elementlari.
- 2.4. Kompozitsiya turlari, naqsh chizishning asosiy qoidalari.
- 2.5. Intererda ishlatiladigan bezaklardan tokchalarni yasash texnologiyasi.
- 2.6. Ijodiy kompozitsiya bajarish bosqichlari.

III. Xulosa.

IV. Izohli lug'at

V. Adabiyotlar ro'yxati.

VI. Ilovalar.

Kirish.

O'zbekiston xalqining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. “Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - *biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarini yangi jamiyat qurilishiga tadbqiq etmog'imiz kerak*”¹ - degan edi Prezidentimiz I. A. Karimov.

Respublikamizda qabul qilinayotgan bir qator qarorlar vatanimizni har tomonlama, jahon andozalari asosida rivojlantirishga qaratilayotgani bejiz emas. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va jahonga mashhur ajoyib san'at turlaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Xalqimiz ma'naviyati va madaniyatini boyitishda amaliy san'at muhim o'rin tutadi. Zero, ma'naviyat – eng avvalo insoniy fazilat sifatida namoyon bo'lib, inson ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun yoshlarni bilimli va dono bo'lishiga o'z yurtining tarixi, milliy qadriyatlari, hamda buyk ajdodlar qoldirgan ma'naviy merosni ko'z qorachig'iday saqlashga o'rgatish muhimdir.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi kunda butun dunyoda xalqimizning boy va betakror badiiy boyligi va milliy qadriyatlariga, qolaversa o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy rivojlanishi, shakllanishi uchun asos bo'lgan muxim omil sanalgan me'rosimizga qiziqish haqli ravishda oshib bormoqda. Tanlangan mavzuning muimligi shundan iboratki, O'zbekistonda juda qadimdan ajdodlarimiz, ganchkorlik sohasidagi hunar sirlarini mukammal o'zlashtirganlar. Bizning maqsadimiz ham bu san'atining o'ziga xos xususiyatlari, qirralarini sinchiklab o'rganish, tushunchaga ega bo'lib, ganch o'ymakorligi yo'nalishidagi mavjud ananalarni saqlab qolgan holda yangiliklar kiritish. Geometrik va islmiy naqshlardan foydalab murakkab ijodiy kompazitsiya tuzib, amalda bajarishni ta'minlashdan iborat.

Maqsadi: Ganch o'ymakorligi san'atida ishlatiladigan kompozitsiyalarni tahlil qilib o'rganish, o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lish, qadimgi

va hozirgi zamon ganch o`ymakorligini uyg'unlashtirib, ijodiy kompazitsiya bajarish.

Vazifasi: Ganch o`ymakorligi san`atida bizdan oldingi ustalarni ishlagan naqsh kompazitsiyalarini sinchiklab o`rganish, unutilgan san`atning tur va janrlarini notekis rivojlanish sabablarini tushunish, amalda ijodiy kompazitsiyani bosqichma –bosqich bajarishdan iborat.

Ishning yangiligi: Biz rejalashtirgan turunj kompozitsiyasining afzalligi, yangiligi shundaki buni xoxlagan joyga ko`chirib o`rnatishimiz mumkin . bir so`z bilan aytganda ko`chma turunj kompozitsiyasi.

O`zbek xalqining ko`p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san`ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O`zbek diyorida vujudga kelib gullab yashnagan san`at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo`lsak o`zbek amaliy bezak sanati turlarining shoh ildizlari ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo`lamiz.

O`lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berishi, buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo`lib, asrlar osha hozirgacha uzluksiz davom etib kelmoqda.

Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo`lmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy ijod faoliyati insonning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo`ldi.

Bunday faoliyat natijasidan chiqadigan estetik-badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, narsalar va voqea-hodisalarni, atrof-muxitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoilda qaytadan aks ettirishga havas uyg`otadi. shakl va ranglarning real hamda stillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va u o`z navbatida, odamlarning kundalik turmushlaridan o`rin ola boshladi. natijada badiiy bezaklarning xilma-xil shakllari va turlari paydo bo`ldi. O`zbekiston va umuman o`rta osiyo xalqlarining bizgacha yetib kelgan.San'at asarlari orasida naqshlar asosida yaratilgan badiiy asarlar alohida ko`p sonni tashkil etadi. boshqa san'atlarga

nisbatan bunday naqshli bezaklar ko'pligining va takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor. Ma'lumki, islom mamlakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan, zero, mavjudotni yarata olish, ularga jon bag'ishlash faqatgina qodir tangriga xosdir, insonlar esa bunday ishni bajarishga ojizdirlar, bordiyu biror ishni yuqori takomil darajasida ijro etish imkoni yo'qligi avvaldan ma'lum ekan, bunday ishga kirishmoqlikning o'zi aqldan emasdur.

Boshqacha aytganda, hech bir tasvir unda ifodalangan mavjudot darajasiga ko'tarila olmaydi, shu bois tasvir soxta bo'ladi. Tasviriy san'atga bu qadar chuqur, falsafiy yondoshish natijasida shartlilik stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lganki, hozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik naqqoshlik, hattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg'unlashgan mujassamligidan iboratdir.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlardagi me'morchilik va xalq amaliy bezak san'ati yodgorliklari o'tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho san'at asarlarining namunalari bo'lib, xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi. xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy, axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, mavjud barcha san'at turlari o'z o'quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabinga o'tkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy ta'siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. Xalq amaliy bezak san'ati turlarining fazilatlari juda ham o'ziga xos bo'lib, ularni boshqa hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi ya'ni, bunday san'at asarlari ayni choqda ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo'lgan yaqin o'tmishda o'zbek

amaliy bezak san'atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik zardo'zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo'yroboflik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari unuta borilib, yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan edi. Bunday holat hozirgi kunda san'atkorlar, xalq ustalari, muallimlar va san'at havaskorlari oldiga amaliy bezak san'atini saqlab qolish, ularni har tomonlama o'rganish va rivojlantirish, yosh avlodga san'at sir-asrorlarini o'rgatish orqali o'rinbosarlar tayyorlash san'at asarlarini keng targ'ib qilish orqali jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuqori bosqichga ko'tarilishiga erishish vazifalarini qo'yadi.

Bu maqsadlar yo'lida olib boriladigan ishlar xalq ustalari, san'atkorlar uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarning badiiy ta'lim olishlari, san'atlarni egallashlarini tashkil etish va to'g'ri ilmiy-metodik yo'nalishda olib borish, san'atkor pedagoglar tayyorlashni yo'lga qo'yish, tegishli ilmiy tadqiqotlarni olib borishdan iborat bo'lishi kerak ekanligini davlat tomonidan hunarmandlarni qo'llab quvatlash maqsadida ishlab chiqilgan farmon va qarorlar bunga misol bo'la oladi.

Xalq amaliy bezak san'ati an'analari tarixda avloddan-avlodga o'tib kelish bilan birga taraqqiyotning yangi sifatiga ega bo'lmoqda, bu jarayon, ayniqsa, hozirgi davrda yanada yuqori samaralarga erishuv imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.

O'zbek xalqi qadimdan o'zi yashaydigan hovli-joylarini, turli binolar va inshootlarni milliy uslubda badiiy bezashga katta e'tibor qaratib kelganlar. Buni isbotini qadimiy Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon kabi shaharlarimiz misolida ko'rishimiz mumkin. Bu borada har bir markazning o'ziga xos uslubi, maktablari shakllanib kelgan. Uy joylarni bezatishda amaliy san'atning ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik turlaridan keng foydalanilgan.

Bizga ma'lumki yuqorida sanab o'tilgan san'at turlarida ishlatiladigan bezaklar, turli shakllar, geometrik va islmiy naqshlar tabiatdan olinib soddalashtirilib ramziy

ma'noda tavrirlanadi. Shu bezaklardan foydalanib o'z uylarini bezatish bilan birgalikda yosh avlodni atrof muhit go'zalligiga e'tiborli bo'lishiga undaganlar va usto shogird ananalariga muvofiq farzandlarini ustolarga shogirdlikka qo'yib shu san'at turlarini davom etib bizgacha yetib kelishiga zamin yaratganlar.

I.BOB. Ganch o'ymakorligi san'atining milliy me'morchiligimizda tutgan o'rni

1.1.Ganch o'ymakorligi san'atining tarixi.

Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, o'z aksini dunyo me'morchiligida, shu jumladan, O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg'oniston va boshqa Sharq mamlakatlari me'morchiligida namoyon etib kelmoqda. Ayniqsa, mustaqillik sharofati bilan ganchkorlik serquyosh O'zbekistonimizda yanada yangilanib, jilo topmoqda. Bunda yaratilayotgan asarlar o'ziga xos badiiyligi, kompozitsiyasi va ishlanish usuli bilan farq qiladi. Quvonarli joyi shundaki, hozirgi yoshlar bu hunarni astoydil o'rganishga, uning sirlaridan xabardor bo'lishga, yangidan yangi kompozitsiyalar yaratish, ijod qilish ustida maroq bilan ishlamoqdalar. Bunga esa barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash joiz hunar o'rganish uchun san'at bilim dargohiga kelgan o'quvchini xuddi daryo bo'yiga kelgan tashna kishiga o'xshatish mumkin. Chunki tashna kishi o'z chanqog'ini qondirish uchun miriqib suv ichadi. Xuddi shunday o'quvchi ham san'at bilim dargohiga kelib «tashnalik» bilan hunar o'rganadi. O'quvchining «tashnaligi» — uning hunarga qiziqishi, o'z ustida ishlashi, qiyinchiliklarni yengib, ijodiy qobiliyatini namoyon qilishi, yangiliklar ustida tinmay izlanib, o'z mehnat samarasidan zavq ola bilishida namoyon bo'ladi.

Ganchkorlik o'zbek xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan bir turi bo'lib, u qadim-qadimdan o'z aksi husn-jamolini dunyo me'morchiligida namoyon etib kelmoqda.

Ganch o'ymakorligi san'ati asrlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanmoqda. Qadimgi ganch o'ymakorligi hajmiy bo'lib, realistik tasvirlar asosida ishlangan. Ularda ko'pincha odamlar, hayvonlar, qushlar tasviri ishlangan. Eramizning birinchi asrla- ridayoq kishilar ganchning ajoyib xususiyatlarga ega ekanligini bilib, qal'alar, karvonsaroylar va boshqa joylarni bezay boshlaganlar.

III asrda Tuproqqal'aning serhasham saroy mehmonxonalari o'yma ganch bilan bezatilgan. Varaxsha shaharchasida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan va eramizdan avvalgi III—IV asrlarda ishlangan ganch o'ymakorligi namunasi topilgan. Unda o'simliksimon va geometrik naqshlar ganchdan ishlangan.

Varaxshadagi topilmalardan VII—VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan namunalar topilgan. Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar, baliqlar, o'simliksimon va geometrik shakllarning o'yma namunalarini ko'rish mumkin. O'rta Osiyoni arablar zabd etganidan keyin islom dini hukmron bo'lib, unda tirik mavjudotni tasvirlash taqiqlandi. Buni O'rta Osiyodagi me'moriy yodgorliklardan ko'rish mumkin. Xususan, VII—VIII asrlardagi hukmdorlarning Varaxshadagi saroylarida bu san'atning xilma-xil namunalari saqlangan.

X—XI asrlarda naqqoshlik, yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi yanada rivojlandi. Murakkab naqshlar paydo bo'ldi. Ganch o'ymakorlik ishlari uyning ichki va namgarchilik tegmaydigan tashqi qismida ham qo'llanilgan. Har xil geometrik shaklli qilib g'isht terish rivojlangan. Afrosiyobda arxeologik qazishmalar natijasida X—XI asrlarda ishlangan saroylarning qoldiqlari topilgan. Farg'ona vodiysida XII asrda bezak sifatida har xil plitkasimon o'yma ganch namunalari ishlatilgan. Bu — binolarni ganch plitkalari bilan bezash keng avj olganligini ko'rsatadi. Movarounnahrda ganchkorlik san'ati ayniqsa ravnaq topgan, me'morchilikning asosiy bezagi darajasiga ko'tarilgan.

XIII asrda ganchkorlik san'ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o'ymakorlik ishlari misol bo'la oladi. XIV—XVII asrlarda ham binolarning ichki tomonlarini bezashda ganchkorlik san'atidan foydalanilgan. Bu davrlarda yangidan yangi naqshlar yaratildi. Binolarda ganch o'ymakorligi, uzviy bog'langan koshinlar va toshdan o'yilgan bezaklardan foydalanish natijasida ganchkorlik asta-sekin minoralarning ichki qismiga qo'llaniladigan bo'ldi. Uning tashqari qismiga esa juda kam qo'llanildi.

Ganchkorlikning gullab-yashnagan davri XVIII asrning oxiri — XIX asrning boshlari bo'ldi. Uning uslublari, texnikasi ancha murakkablashdi. Ganch o'ymakorligining barcha turlari rivojlandi. Qurilgan binolarda xalq ustalari yorqin jilvali bo'yoqlar bilan ganchga jilo berdilar.

Bezaklarning hamma turlariga xos aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Targ'ona vodiysi va Xivada o'ziga xos mustaqil maktablar vujudga keldi. Ganch o'ymakorligi texnikasi kishini qoyil qoldiradigan darajada o'sdi. Buxoro bezaklaridagi mayin gullar juda ham nafis, Marg'ilonning guldor bezaklari yaxlit ko'rinishga ega, Toshkentniki esa qat'iy va aniq ritm asosida tuzilgan, Xivaning dinamik o'yma naqshlari o'ziga xos spiralsimonligi bilan farq qiladi.

O'zbekiston me'morchiligiga katta xazina bo'lib qo'shilgan Alisher Navoiy nomli Davlat opera va balet katta teatri 1947- yili akademik me'mor Aleksey Shusevning loyihasi va rahbarligida qurib bitkazildi. Teatr binosini zamonaviy estetik talablarga asoslanib, o'zbek milliy an'alarini saqlagan holda xalq hunarmand-ustalari bunyod etdilar. Teatrning bezak ishlariga barcha shaharlardan ustalar, naqqoshlar, rassomlar, ganchkorlar, toshtaroshlar va boshqa kasb egalari jalb qilindi. Bezak ishlarida akademik A. Shusev eskizi bo'yicha teatrning fasadi (tashqi ko'rinishi), eshikdan kiraverish joyi va tomosha qilish zali (mehmonxonasi)ni T. Arslonqulov bajardi. Teatr binosining 3- qavatida 6 ta yon zal (mehmonxona)lari bor edi. A. Shusev O'zbekiston viloyatlaridagi ganchkor ustalarni bir joyga yig'ib, ular oldiga ikki muhim masalani qo'ydi. Birinchisi, har bir viloyatning o'ziga xos milliy uslubi asosida bezash, ikkinchisi, bezalgan xonalar teatrning me'morlik badiiy obraziga mos tushishi kerakligi haqidagi masala edi. Bular Xiva, Termiz, Samarqand, Farg'ona, Buxoro va Toshkent zallaridir. Bulardan Xiva va Termiz zallari qadimda ishlatilgan ganchkorlik uslubida bezatilgan. Buxoro, Toshkent, Farg'ona va Samarqand zallari esa zamonaviy xalq an'anasiga mos bo'lgan ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan.

1.2. Ganch o'ymakorligi maktablari

Xorazm ganch o'ymakorligi maktabi. Xorazm o'zining qadimiy yodgorliklari bilan jahonga mashhur. Xorazmdagi Islomxo'ja minorasi, Faxriddin Rozi maqbarasi, Juma masjidi va boshqa tarixiy obidalar O'rta asr Sharq me'morchilik san'atining go'zal namunalaridan biridir. Ular o'zining soddaligi va naqsh motivlarining ulug'vorligi bilan dunyoga dong taratgan.

Alisher Navoiy nomli O'zbek Davlat Akademik teatrining Xiva zalidagi (arxitektor S. N. Polupanov) naqsh andozalarini Davlat mukofoti laureati Abdulla Boltayev chizgan. Ganch o'ymakorlik ishlarini bajarib, milliy badiiy bezashda xivalik ustalar — S. Xudoyberganov, K. Polvonov, B. Bobojonov, Ro'zimat Mashrapov va uning shogirdlari S. Qalandarov, Sh. Ibrohimov, S. Qodirov, Avazov kabi ustalar qatnashgandilar. Ular bezagan o'yma ishlar kishi qalbiga orom bag'ishlaydi.

Xiva zali qadimda ishlatiladigan ganchkorlik uslubida bezatilgan. Xiva zalidagi bazaklar medalyon shaklida qilib o'yilib, u xuddi Xivadagi mayolik (koshin)ga o'xshab ketadi. Bu o'yma uncha chuqur bo'lmay, juda mayda o'yilgan, xuddi yog'ochdan o'yilganga o'xshaydi. Naqsh kompozitsiyasining tuzilishi spiralsimon, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Umumiy naqsh kompozitsiyalari shakldor medaliyonlarning takrorlanishidan hosil bo'lgan, uzoqdan ajoyib ko'rinishga ega.

Xivadagi tarixiy obidalarining har biri shahar me'morchilik ansamblining tarkibiy qismi bo'lsa-da, ammo ularning har qaysisi o'ziga xos takrorlanmas san'at asaridir.

Juma masjidining naqshlari rango-rangligi bilan kishini qoyil qoldiradi. O'yma marmar plitalar, sirlangan g'ishtlardan terilgan naqshin devorlar, mozaikadan ishlangan shakllar, tokchalar, devorlarga ishlangan tasvirlar o'zaro uyg'unlashib, yaxlit badiiylilik hosil qiladi.

Faxriddin Rozi maqbarasidagi o'yib, chizib, pishirib ishlangan naqshlar ko'zni qamashtiradi. Bu naqshlar Xorazm xalqining o'ziga xos xususiyatlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Devor tokcha va sharafalariga ishlangan naqshlar aylanma, dinamikligi va nozikligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Xorazmning badiiy arxitektura yodgorliklari XIX—XX asr boshlarida Xiva shahrida bir joyda yaxlit holda to'planib qolganining guvohi bo'lamiz.

Xorazm arxitektura yodgorliklaridagi o'yib, chizib, pishirib ishlangan naqshlarni ko'rsak, o'ziga xos shakllardan iboratligi, naqshlarning o'ziga xos aylanma spiralsimon kompozitsion tuzilishga egaligi hamda novdalarning juda nozik chizilishi, o'yilishi chiziqlarning bir-biri bilan kesib o'tganligi jimjimadorligi bilan ajralib turadi. Xorazm san'atida gullarning spiralsimon tuzilishi juda qadimdan

qo'llanilib kelingan. Buni eramizdan oldingi III asrlarda qurilgan Tuproqqal'a saroyi xonalaridagi bezaklarda ko'rish mumkin.

Xorazm me'morchiligining manzarali bezaklarida geometrik naqsh keng o'rin olgan bo'lib, O'zbekistonning boshqa viloyatlariga qaraganda o'ziga xoslikka ega. Lekin ular juda kam farq qiladi. Ayniqsa, o'simliksimon naqshlar spiral shaklida aylanma harakatchanligi, dinamikligi bilan ajralib turadi. Xorazm ganchkorligida «madoxil», «turunj», «qalampir» shaklidagi naqsh kompozitsiyalari va boshqalar keng o'rin olgan. Xorazm ganch o'ymakorligining naqsh kompozitsiyasi so'zanani eslatadi. Sirli koshin naqshlariga qaraganda ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi Xorazmda uncha rivoj topmagan bo'lsa-da, lekin o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa shaharlarda o'yilgan naqshlardan farq qiladi. Chunonchi, Toshhovli va Saidboy masjidiga ishlangan ganch o'ymakorligi qandaydir qo'pol o'yilgan bo'lsa-da, tez o'yilgan bo'lib, o'yma naqsh dinamikalariga ega. Bu ganch o'ymakorligiga choka pardozi berilgan. Xorazmda ko'pincha choka pardozdan foydalanib kelingan.

Buxoro ganch o'ymakorligi maktabi. Ganch o'ymakorligining eng rivojlangan o'chog'i Buxoro bo'lgan. Bu yerda ko'pgina ganch o'ymakor ustalar yashab, ijod etishgan. Ulardan biri akademik Usta Shirin Murodov (1879—1957). U kishi 1879-yili Buxoro shahrida quruvchi-ganchkor oilasida dunyoga keldi. Uning bobokaloni Umid mashhur ustalardan bo'lgan. Shirin 8 yoshidan 14 yoshigacha maktabda o'qiydi. 12 yoshdan boshlab otasi uni har xil qurilishlarga olib borar, ganch o'ymakorlik asboblari ishlatishni, oddiy zanjirlar o'yishni, pardoz turlari va odiiy naqsh kompozitsiyalarini chizishni o'rgatar edi. Shirinni 14 yoshida (otasi va onasi vafot etgandan keyin) amakisi Usta Hayot qaramog'iga oladi. Shirin amakisi Usta Hayot bilan Buxoroda ko'pgina qurilishlarda bo'lib, san'at sirlarini o'rganib boradi. Usta Hayot o'sha vaqtlarda mashhur quruvchi-ustalardan edi. U 20 dan ortiq shogirdlar yetishtirdi, shogirdlari ichidagi yetim bolalarni o'z qaramog'iga oldi. Usta Hayot shogirdlariga qurilish va bezak ishlarini puxta o'rgatib boradi. Bu shogirdlardan — Usta Safar, Usta Adiz, Usta Rahim, Usta Muxtor, Usta Savri, Usta Islom, Usta Akrom, Usta Jo'ra va boshqalar katta usta bo'lib yetishdilar. Shirin o'sha davrning ganchkor va quruvchi-ustalari bilan birga ishlaydi. Yosh ganch o'ymakor,

me'mor Shirin faqat qurilishda ishlamasdan, balki ustaning boshqa shogirdlari bilan uyda rasm soladi, o'simliksimon, geometrik naqsh kompozitsiyalarini, binolarning ko'rinishini, chizma va xomaki nusxalarini chizishni chuqur o'rganib boradi. Amakisi har doim Shirinni birga olib yuradi. U Usta Hayotning hamma ishlarini bajaradi. O'sha vaqtlarda Usta Hayot ko'pincha mashhur ustalar bilan suhbat qurishar, dunyo voqealari, bo'lib o'tgan tarixiy hodisalar haqida gaplashib o'tirar edilar. Shirin bunday suhbatlarning juda ko'pida qatnashadi. Ayniqsa, O'rta Osiyo tarixini yaxshi o'rganadi. Shirin amakisi qo'lida 18 yil ishlaydi. Shundan so'ng shogirdlikdan usta darajasiga ko'tariladi. Qobiliyatli Shirin Murodovga amakisi Usta Hayot bir necha binolarni bezatishni topshiradi. O'sha vaqtda usta nomini olish juda qiyin edi. Chunki shogird usta bo'lish uchun nazariy hamda amaliy ishlarni puxta bilishi, albatta, bir qancha ustalar orasida fotiha olishi kerak edi.

Usta Shirin hayotligida unga shogird tushish hammaga ham nasib qilavermasdi: u kishi bilan birga ishlaganlar esa hali – haligacha bundan faxrlanadilar. Usta Abdurahim Qayumov ana shunday baxtga muyassar bo'lgan kishilardan biri. U kishining usta haqida aytgan bir necha voqeaband hikoyasini e'tiboringizga havola qilamiz.

Abdurahim akaning aytishlariga qaraganda, usta Shirin Murodov naqshlarni chizishda chizg'ich ishlatmas ekan. Uning barmoqlari chizg'ichdan ham aniqroq o'lchar ekan. Shakllarning o'lchamlarini barmoqlarning bo'g'inlari va qarich bilan aniqlab, hammasini qo'l va ko'z mo'ljaliga bilan belgilar ekan: agar shu shakllarni mikrometr bilan tekshirsangiz, ularda bir millimetr ham xato topolmaysiz.

— Usta Shirin jussasi kichkinagina, o'ta chayir, serharakat, baquvvat kishi edi, — deydi Abdurahim aka so'zini davom ettirib, — u kishi bilan qo'l olib ko'rishishga uncha-muncha odamning yuragi dov bermas, chunki ko'rishganida samimiylikdan qo'lni shunday qisar ediki, barmoqlarni bir-biriga yopishtirib yuborishiga sal qolardi.

Alisher Navoiy nomli O'zbek Davlat Akademik opera va balet teatri Buxoro zalining naqsh kompozitsiyalarini va o'ymalarini Usta Shirin Murodov bajargan.

U Buxorocho milliy va zamonaviy uslubni qo'llagan. Uning oyna zaminli ganch o'ymakorligi xonani yanada keng qilib ko'rsatadi. Unda ajoyib va murakkab

sharafalar, qandillar, namoyonlar kishi diqqatini o'ziga tortadi. Keksa Usta Shirin Murodov buxoroliklarga xos «tabaqa pardoz» deb ataladigan murakkab uslubni bizgacha yetkazib kelib, Buxoro zalida oynayi jahon qurdi. U ajoyib qandil ishlab, uning shiftiga qubbali qilib muqarnas ishladi. Shift o'rtasiga o'sha davrgacha hech kim stalaktit ishlatmagan edi. Murakkab muqarnaslar xona hajmiga mos tushgan. Hajmli oppoq geometrik shakllar kishiga qandaydir erkinlik his-tuyg'usini beradi. Deraza ko'zgu zaminli namoyonga tushayotgan yorug'lik xonaga yanada keng, yorug' va o'ziga xos joziba baxsh etadi.

Toshkent ganch o'ymakorligi maktabi. Toshkentda ganch o'ymakorligi juda qadimdan rivojlanib kelayotgan san'at turlaridan biri. Bu maktabda Usmon Ikromov, Usta Toshpo'lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, Hayot Abdullayev, Ziyodulla Yusupov, Tohir Umarov kabi qator yetuk ustalar yetishib chiqqan.

Alisher Navoiy nomli O'zbek Davlat Akademik teatri Toshkent zali (mehmonxonasi)ga Toshpo'lat Arslonqulov kompozitsiya chizgan. Guldasta, sharafa, namoyon, rutalar yuqori relyefli qilib bajarilgan. Toshpo'lat Arslonqulov o'yma naqsh solish texnikasi, «muqarnas», «majnuntol», «choka pardoz», «zanjira», «shoxbarg» kabi uslublarni amalda qo'llab, taraqqiy ettirish bilan birga «chor burchak», «kuvacha ismli», «palak ismli», «paxta chanog'i ismli» kabi kompozitsiyalarni bezadi. Toshpo'lat Arslonqulov zalda zamonaviy ganch o'ymakorligini bajarib, uning har bir kompozitsiyasi tantanaviy dinamik qilib ishlagan. Pardozning rang-barangligi boshqa viloyat naqshlaridan farq qiladi. O'ymalar aniq, ko'rkam, yaxshi ko'rinishga ega. Usta islimi naqshdan ko'p foydalangan.

Samarqand ganchkorlik maktabi. Samarqand butun dunyoga mashhur eng qadimiy shaharlardan biri. Undagi har bir naqshinkor obida bebaho bir asarga teng. Bu yerda xalq amaliy san'atining barcha turlari keng tarqalgan va rivojlangan. Shular qatori ganch o'ymakorligi san'ati hozirda o'ziga xos uslubda rivojlanib bormoqda. Samarqand ganch o'ymakorligining namoyandalari Usta Anvar Quliyev, Usta Tursunboy Ismoilov, Shamsiddin G'ofurov, Quli Jalilov va boshqalardir.

Alisher Navoiy nomli O'zbek Davlat Akademik opera va balet teatri Samarqand zalidagi (me'mor S. N. Polupanov) ganch o'ymakorligi ishlari kompozitsiyalarini

davlat mukofoti laureati Quli Jalilov va boshqalar bajarganlar. Bu zalda sharafa kompozitsiyalari, geometrik ornamentlar, namoyon, ruta zanjira kompozitsiyalarining ajoyib namunalari ishlangan. Shiftga geometrik naqsh girih o'yilib, oralariga «o'yma isimli» naqsh kompozitsiyalari bajarilgan. Shift atroflariga yulduzsimon hovuzlar, ularning o'rtasiga murakkab geometrik naqshlar o'yilgan. Devorning yuqori qismiga iroqi sharafa bajarilgan. Keng to'rtburchak shakldagi gilam Samarqanddagi so'zanaga o'xshab ketadi. Namoyon atrofida bo'sh joylar qoldirilib, ba'zilariga ruta o'yilgan. Bu bo'shliqlar kompozitsiyani yanada badiiylashtirib, xonaning ko'rkamligiga yana ko'rk bag'ishlaydi. Qandillar sakkiz qirrali qilib o'yilgan. Alisher Navoiy nomli O'zbek Davlat Akademik opera va balet teatri Termiz zali (me'mor A. Zaynutdinov). Bu zalning naqsh kompozitsiyalarini Usta Shirin Murodov Termiz stiliga mo'ljallab chizgan. O'yma ishlarni Usta Shirin Murodov, F. Ne'matov va boshqalar bajarganlar. Termiz zali qadimiy ganchkorlik uslubida bezatilgan bo'lib, XII asr Termiz saroyidagi ganch o'ymakorligini eslatadi. Teatrda kirgan odam O'rta asr bezash stilining shu teatrda uchrashini xayoliga ham keltirmaydi.

Termiz zalida zamonaviy uslubdagi hech narsani uchratmaymiz. O'yilgan naqsh zamini umumiy yuzaning 10—30 foizini tashkil etadi, chuqurligi 10—20 mm. O'yilgan yuza qoramtir tusda soya berib o'yilmagan yuzani aniq kontrast qilib ko'rsatib turibdi. Hoshiya va izoraga ishlangan naqshlar foni 10—20 foizni tashkil etib, naqsh kompozitsiyalari bir-biridan farq qiladi. Namoyonlar chetini ozgina bo'sh qoldirib, atrofiga ruta ishlangan. Ruta foni namoyondagi fonga nisbatan kam o'yilgan. Bu namoyonga qaraganda ruta oshiqroq bo'lib, namoyon kompozitsiyasining ko'rkini yanada ochgan.

Alisher Navoiy nomli O'zbek Davlat Akademik opera va balet teatri Farg'ona zali (me'mor B.N. Zasipkin). Ganch o'ymakorligi va naqsh kompozitsiyalarini qo'qonlik Saidmahmud Norqo'ziyev bajargan. O'yma ishlarida Jalil Marasulov va ko'pgina Farg'ona ustalari qatnashgan. Farg'ona zalining shifti qoburg'ali qilib, ganch o'ymakorligi kompozitsiyalari bilan bezatilgan. Bu Farg'ona vodiysidagi an'anaviy badiiy uslubni eslatadi. Sharafa biroz qo'polroq qilib stillashtirib yuborilgan.


Sharafaning yuqori qismiga geometrik naqshlar panjaraga o'xshatib ishlangan. Naqsh kompozitsiyalari choka pardoza bajarilgan.


1.3. Interer va eksteryerda ganch o'ymakorligi kompozitsiyalarini qo'llash.

Nozik va nafis ganch o'ymakorligi namunalari me'morchilik taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi badiiy vositalardan biridir. Ganchdan o'yib ishlangan o'yma turlari ko'p bo'lib, mohir o'ymakor ustalar ulardan foydalanib, mo'jizalar yaratib kelganlar. Ular binolarning tashqi, ayniqsa, ichki qismlarini nafis ganch o'ymakorligi bilan bezab, kishilarimizga estetik zavq baxsh etganlar. Bulardan tashqari, ustalar mahalliy sharoitga moslab, ya'ni xonalar qishda issiq, yozda salqin, yorug', keng, chiroyli bo'lishini nazarda tutib ish ko'rganlar. Ma'lumki, binodagi mehmonxona yozgi xona hisoblanib, u salqin bo'lishi uchun asosan shimolga qaratib qurilgan. Devorlari ikki qator sinchli qilib, ichi guvala yoki g'isht bilan to'ldirilgan. Devorlarning uzun qismi toq songa bo'lingan, masalan, uchga, beshga va yettiga. Devorlarda deraza, tokcha va taxmonlar uchun joylar qoldirilgan. Tokcha, taxmon va derazalari orasida joylar qoldirilib, ular o'yma namoyon bilan bezatilgan.

Xona devorini qismlarga ajratish

Xonalarning balandligiga qarab sharafa qismining o'lchamini aniqlashni quyidagicha tavsiya etish mumkin:





Devorning izora qismi balandligini belgilashda xona balandligini hisobga olish kerak. Agar xona qanchalik baland bo'lsa, izora ham shunchalik baland qilib, agar xona past bo'lsa, izora ham shunchalik kichik qilib belgilanadi, aks holda, xona qismlari nisbati va pardoz sifati buziladi.

Mohir ustalar devorning uzun qismini toq songa, masalan, uchga, beshga, yettiga bo'lganlar. Devorlarda deraza, tokcha va taxmonlar uchun joy qoldirilgan. Tokcha, taxmonlar va derazalar orasida joy qoldirilib, ular o'yma namoyon bilan bezatilgan. Ustalar binoning interyerini bezashda uni uch qismga bo'lishgan. Devorning pastki qismi **izora** (panel) bilan bezaganlar, o'rta qismiga ko'pincha tokcha, namoyon va daxana ishlangan. Devorning eng tepa qismini **sharafa** bilan bezatilgan, taxmon, tokcha va deraza chetlari **zanjira** naqsh bilan hoshiyalangan. Bu zanjirining eni ko'pincha 4—5 sm bo'ladi, chuqurligi bir necha mm dan oshmaydi, zanjiradan kattarog'i 12—20 sm bo'lgan **islimi** yoki **ruta** (hoshiya) naqsh deb ataladi. Bulardan tashqari tokcha, taxmon, deraza va boshqalarning chetiga raxlar qilingan, ruta zanjiralar ko'pincha quyma asosida ishlangan. Tokcha taxmonlarning sharafa oralig'ida joylar qoldirilgan, bu **kitoba** deb atalgan. Izora bilan tokcha orasida qoldirilgan joy **lali** deb yuritilgan. Tokchalar ichki qismining tepasiga yarim sharsimon qilib sharafa ishlangan yoki tokcha qismining tepasiga yarim sharsimon qilib sharafa ishlangan yoki tokcha bir necha kichkina bo'lakchalarga bo'linib, uning chetlari o'yma ganch bilan bezatilgan. Buni ustalar **tokchabandi** deb ataganlar.

Ustalar tokchalarni har xil yo'llar bilan bezaganlar. Lali degan joyga o'simliksimon yoki geometrik naqshlar chizilgan. Kitobaga arabcha yozuvlar yozilib, chizib yoki o'yib bezatilgan, namoyonlarga esa ko'pincha gul tuvakli guldasta o'yma naqshlar tasviri tushirilgan.

Ganch o'ymakorligining ajralmas bir qismi bo'lgan xattotlik yozuvlarini loyihalash va o'yish hozirgi paytda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Xattotlik yozuvlarini, asosan, masjid va madrasalarni bezashda keng qo'llanib kelinmoqda. Bunday yozuvlarni loyihalashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

1.4.Ganch o'ymakorligi san`atida rangshunoslikning muhimligi.

Rangshunoslik haqida mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarga uning ahamiyati katta ekanligini tushuntirish kerak. Chunki rangshunoslik barcha mutaxassislar uchun hunarni mukammal o'rganishlarida katta yordam beradi.

Rang — bu biror narsaning xususiyati bo'lib, uni inson ko'zi bilan ko'rib, aqli bilan idrok etadi, bu o'rinda nurning o'rni benihoya kattadir. Nur bilan rangning o'zaro bog'liqligini tushuntirish uchun Isaak Nyutonning 1866-yilda nurning spektor ranglarga bo'linish tarjibasini tushuntirish kerak. U qorong'i xonada shisha prizмага nur dastasini tushirib, devorda kamalak ranglarini hosil qilgan va nur spektor ranglardan iborat degan xulosaga kelgan. Shu o'rinda o'qituvchi tabiatdagi kamalak hodisasini ko'rsatib, bu mo'jiza ekanligini aytishi va nima uchun 7 ta rang ekanligiga diqqatni jalb etishi kerak.

Endi nurning qaytishi, sinishi va yutilishi haqida tushuntirish lozim. Agar nur biror yuzaga tushib, undan qaytsa, shu yuza oq rangda bo'lib ko'rinadi. Agar nurning hamma qismi yutilsa, bu yuza qora rang bo'lib ko'rinadi. Shu o'rinda qishda qor yoqqan payt xonadan tashqariga chiqqan vaqtda inson ko'zi qamashib ketishini, yozgi vaqtda quyosh nuridan saqlanish uchun oq ko'ylak kiyib yurishni, alpinistlar nurdan saqlanish uchun maxsus ko'z oynak taqib olishlarini aytib o'tish joyiz bo'ladi. Endi boshqa ranglarning qanday ko'rinishi haqida gapirsak. Biror yuzaga tushayotgan nurning barcha spektor ranglari yutilib, faqat bir rangi qaytsa, yuza shu rangda ko'rinadi. Masalan, tushayotgan nurning faqat ko'k qismi qaytsa, yuza ko'k rang bo'lib ko'rinadi va hokazo. Haqiqatan, ham xonada bir rangni ko'rsatib, faraz qilaylik, derazadan tushayotgan nurni to'sib yoki yoritish anjomi o'chirilsa, hech

qanday rang ko'rinmaydi. Agar mantiqan o'ylab qaralsa, bu fikr to'g'ri, haqiqatan ham yorug'lik bo'lmasa, hech qanday rang ko'rinmaydi. Rangshunoslikni yuqorida mo'jiza deb atadik, lekin hozirgi paytda bir qancha mo'jizalar mavjud. Masalan, Xitoyda bir kishi qorong'ida ham hamma narsani ko'ra olish xususiyatiga ega ekan yoki bir qizcha ranglarni barmoqlarining uchi bilan sezish xususiyatiga ega ekan, insonlardagi bu finomen hodisalar hali o'rganilmagan bo'lib, mo'jiza bo'lib qolmoqda.

Axromatik va xromatik ranglar.

Barcha ranglar ikki guruhga bo'linadi.

1. Axromatik ranglar.
2. Xromatik ranglar.

Axromatik ranglarga eng oq rangdan boshlab, eng qora ranggacha bo'lgan barcha rangsiz tuslar kiradi, eng oq rang bariy sulfat rangi bo'lib, eng qora rang qora duxoba rangi hisoblanadi. Bu ranglar orasiga inson ko'zi bilan ajrata oladigan 300 ta rangni sig'dirish mumkin. Shu o'rinda o'quvchilar tushunishi osonroq bo'lishi uchun oq-qora tasvirli televizorni misol qilib tushuntirish mumkin, unda barcha tasvirlar oqdan qoragacha bo'lgan oraliq ranglarda ko'rinadi.

Xromatik ranglar. Xromatik ranglarga axromatik ranglardan boshqa barcha tusdagi ranglar kiradi. Ular 7 xil kamalak rangi, ularni o'zaro aralashtirishdan, oqimtirlash va qoramtirlash orqali hosil qilinadigan son-sanoqsiz ranglar kiradi. Xromatik ranglarning soni va nomi haqida so'z ketganda shuni aytish joiz, agar kamalak rangi 7 ta bo'lsa, uning har birini eng oqish rangidan eng to'q rangigacha bo'lgan ranglarini hisob qilsak (axromatik ranglarda inson ko'zi bilan 300 tasini ajratsa), xromatik ranglarda bu hisob 2100 ta bo'ladi. Agar bu ranglarning ikkitasini bir-biri bilan aralashtirsa yoki oqimtirlash-qoramtirlash bilan bu hisob cheksiz bo'ladi. Ularini nomlash esa undan ham mushkul. Chunki bir inson ko'rib, idrok etgan rang boshqa insonga boshqacha bo'lib ko'rinadi. Bunga sabab insonlarning ko'rish va idrok etish qobiliyatlari har xildir. Bu mavzuni o'tishda o'qituvchi kompyuter asoslari o'qituvchisi bilan hamkorlikda ishlab, o'quvchilarga payn-brash

dasturi yordamida tushuntirsa, o'quvchilar ekran orqali ranglarni ko'rib borishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ranglarning asosiy xususiyatlari.

Ranglarning asosiy xususiyatlarini bilish barcha mutaxassisliklarda zarur bo'lishi bilan birga rangtasvir, qalamtasvir darslarini mukammal o'rganishda hamda tasviriyl san'at asarini yuksak darajada ishlashda buning ahamiyati beqiyosdir. Chunki ranglarning xususiyatini bilmay, uni o'rinsiz yoki ortiqcha ishlatish, san'at asarini nafaqat buzmay, balki uni kulgili qilib qo'yishi mumkin. Shuning uchun o'quvchilar ranglarning asosiy xususiyatlarini yaxshi o'zlashtirib olib, ularni o'z amaliy va ijodiy ishlarida qo'llash sirlarini bilishlari kerak bo'ladi.

Og'ir va yengil ranglar. Bu mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarga quyidagi rasmni ko'rsatib, qaysi biri g'ayritabiiy ko'rinishmi so'rash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar o'quvchilarning ko'pchiligi (albatta shunday) deyishsa, haqiqatan ham shu rasmlar g'ayritabiiy ko'rinadi. Ana endi tushuntirishga o'tiladi. Barcha ranglar og'ir yoki yengil ranglarga bo'linadi. Og'ir ranglarga barcha to'q va qora ranglar kiradi. Yengil ranglarga oq va barcha och ranglar kiradi. Kompozitsiyada har doim og'ir ranglar pastki qismda, yengil ranglar yuqori qismda joylashadi. Aks holda, kompozitsiya maqsadga muvofiq chiqmaydi. Haqiqatan ham, misol uchun, ko'chada oq ko'ylak, qora shim kiyib olgan kishi hammaning e'tiborini o'ziga tortadi. Chunki u chiroyli bo'lganidan emas, balki g'ayritabiiy ko'ringanidan hamma unga qaraydi. Ranglarning bu xususiyatini barcha mutaxassislar hisobga olishlari kerak bo'ladi. Chunonchi, naqqosh xonalarni naqsh bilan bezayotganda og'ir ranglarni xona devorining pastki qismiga, yengil ranglarni devorning yuqori qismiga joylashtirishi kerak.

Issiq va sovuq ranglar. Barcha ranglar issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglar olovni, quyoshni eslatuvchi ranglar, sovuq ranglar esa qorni, muzni eslatuvchi ranglar hisoblanadi. Shu bilan birga issiq ranglar yaqinlashtirib, sovuq ranglar esa uzoqlashtirib ko'rsatish xususiyatiga ham egadir. Ranglarning bu xususiyati ham kompozitsiyada katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, naqqosh yoki ganch o'ymakor xonalarni pardoqlashda quyosh tushadigan xonalarga sovuq

ranglardan, quyosh tushmaydigan xonalarga, albatta, issiq ranglardan foydalanishi kerak. Bundan tashqari, kichik xonalarga uzoqlashtirib ko'rsatuvchi rang, katta xonalarga yaqinlashtirib ko'rsatuvchi ranglardan foydalanishi kerak. Shu bilan birga naqqosh, ganch va yog'och o'ymakorlari, kichik yuzalarga naqsh tushirmoqchi bo'lsalar, mayda gulli naqshlar, katta yuzaga naqsh tushirmoqchi bo'lsalar katta gulli naqshlardan foydalanishlari kerak.

Rang kontrasti, deb ikki yonma-yon turgan ranglarning bir- biriga ta'siriga aytiladi. Rang kontrasti ikki xil bo'ladi. Axromatik va xromatik kontrast.



Yuqoridagi rasmlarni diqqat bilan ko'zdan kechirsak, qora rang ichida turgan oq rang bilan kulrang ichida turgan oq rang bir- biridan farq qiladi. Qora rang ichidagi oq tiniqroq, kulrang ichidagi oq xiraroq ko'rinadi yoki qizil rang ichidagi sariq qizg'ishroq, yashil rangdagi sariq yashilroq ko'rinadi. Bu esa rang kontrasti, ya'ni ranglarning bir-biriga ta'siri deb ataladi.

Asosiy ranglar.




Rangshunoslikni mukammal o'rganish uchun asosiy ranglarni bilishning ahamiyati kattadir. Asosiy ranglar 3 ta bo'lib, ular qizil, sariq va ko'k ranglar hisoblanadi. Qolgan barcha ranglarni shu 3 ta asosiy ranglarni o'zaro aralashtirish yordamida hosil qilish mumkin, buning uchun esa ranglarni aralashtirish qoidasini bilish kerak.

Ranglarni aralashtirish qoidalari.

Ranglarni aralashtirish qoidasini bilish naqqoshlik hunarida, rangtasvir san'at asarlarini yaratishda benihoya katta ahamiyatga ega, chunki naqsh san'at asarining

nafis va ranglari «toza» chiqishi uchun ranglarni aralashtirish qoidasini bilish kerak. Buning uchun rang doirasini hosil qilishni o'rganamiz. 3 ta asosiy rangni doiraning 1/3 qismiga joylashtiramiz.

3 ta asosiy rang — qizil, sariq va ko'k ranglarning ikkitasini o'zaro aralashtirib, oraliq ranglar — yashil, olovrang va binafsha ranglarni hosil qilamiz. Hosil bo'lgan 6 ta ranglarni yana o'zaro aralashtirib, yana yangi ranglarni hosil qilamiz. Bu ranglarni oqimtirlash yoki qoramtirlash orqali yana juda ko'p ranglar hosil qilamiz. Rangni aralashtirishning asosiy qoidasi — rang doirasi bo'yicha yaqin turgan ranglarni o'zaro aralashtirib, yangi rang hosil qilish kerak, aks holda rang doirasida qarama-qarshi turgan ranglarni o'zaro aralashtirilsa, axromatik rang, ya'ni biror aniq tusga ega bo'lmagan rang hosil bo'ladi, bu eng xunuk rang hisoblanadi. Masalan, sariq, ko'k va qizil ranglarni o'zaro aralashtirsak, biror aniq tusga ega, toza bo'lmagan rang hosil bo'ladi. Demak, rangtasvir san'at asari nafis chiqishi uchun toza ranglardan, ya'ni rang doirasida bir-biriga yaqin turgan ranglarni o'zaro aralashtirib, yangi rang hosil qilib ishlatish kerak. Bu yerda bolalarning biz-bizak o'yinchog'ini misol keltirish mumkin, doiraning yarmini qizil, yarmini sariq qilib bo'yab, uni aylantirsak, biz-bizak olovrang bo'lib ko'rinadi. Agar doirani 3 qismga bo'lib, 3 rangga bo'yab aylantirsak, qanday rang hosil bo'lishini ko'z ol- dingizga keltiring.



Ranglarning insonlarga ta'siri.

Barcha ranglar insonlarning asab faoliyatiga, ruhiyatiga turlicha ta'sir etadi. Ranglarning bu xususiyatini barcha mutaxassislar va mo'yqalam ustalari o'z ish faoliyatlarida hisobga olishlari kerak.

Qizil rang. Bu rang faol, qo'zgatuvchi xususiyatga ega. Bunda har qanday qo'zg'alishda bo'lgani kabi nafas olish va yurak urishi o'zgaradi. Qizil rang qisqa vaqt ta'sir etganda insonning ish qobiliyati oshadi. Uzoq vaqt ta'sir etganda toliqtirib, ish qobiliyatini pasaytiradi.

Pushti rang. Xushchaqchaqlik, xursandchilik kayfiyatini beradi. Issiqlik hissini uyg'otib, ish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Sariq rang. Quyosh nuri hissiyatini uyg'otadi. Bu rang faol bo'lib, xushchaqchaqlik baxsh etadi, ish qobiliyatini oshiradi.

Yashil rang. O'ta mayin, tinchlantiruvchi rang. Uzoq vaqt ta'sir etganda ham charchatmaydi, ish qobiliyatini pasaytirmaydi. Yashil rangning ko'p turlari mavjud bo'lib, ular insonga turlicha ta'sir etadi. Masalan, yashil rang bilan sariq rang aralashmasi mayin rang bo'lib, kayfiyatni yaxshilaydi. Yashil bilan ko'k rang aralashmasi passiv rang xususiyatiga ega.

Havorang. Bu rang passiv rang bo'lib, hayotiy faollikni susaytiruvchi va pasaytiruvchi xususiyatga ega. Sovuqlik hissini uyg'otadi.

Ko'k rang. Bu rang passiv, sovuq, tinchlantiruvchi rang bo'lib, uning ta'sirida hayotiy faollik pasayadi, nafas olish va yurak urishi rostlanadi, o'ychanlik va fikr yuritishga moyillik tug'diradi.

Binafsha rang. Eng passiv rang bo'lib, uning ta'sirida hayotiy faollik pasayib, kayfiyat tushib, ichki xavotirlanish hissiyoti uyg'onadi. Binafsha rang qisqa vaqt ta'sir etganda ham ish qobiliyati keskin pasayadi.

Jigarrang. Tinch va turg'un rang bo'lib, issiqlik hissini uyg'otadi. Ba'zi bir turlari esa jiddiylilik hissini qo'zg'aydi.

Qora rang. Og'ir rang bo'lib, tun qorong'uligini eslatadi, kayfiyatni keskin tushiradi.

Kulrang. Zerikish hissini uyg'otadi.

Oq rang. Sovuq, tinch rang bo'lib, soddalik va kamtarlik hissini uyg'otadi.

Kompozitsiyada ranglarni loyihalash.

Har qanday mutaxassislikda ranglarni loyihalash katta ahamiyatga ega. Chunki ranglar to'g'ri maqsadga muvofiq loyihalanmasa, har qanday naqsh kompozitsiya namunasi nafis va chiroyli chiqmaydi. Negaki har qanday san'at asarini ko'pchilikka

ma'qul bo'ladigan, yuksak darajaga ko'taruvchi omil — bu ranglar jilosi hisoblanadi. Masalan, ko'chada bir yigit qip-qizil matodan kastum – shim kiyib olgan bo'lsa, uni ko'rgan odamlar shu yigitning didiga, ongiga, dunyoqarashiga, umuman, uning xarakteriga va ruhiyatiga qanday baho berishini ko'z oldingizga keltiring.

Birinchi navbatda, ganch o'ymakorlik mutaxassisligida ranglarni loyihalashni ko'rib chiqaylik. Xonalarga rang tanlashda quyidagi 4 ta holatni hisobga olish kerak.

1. Xonaning tabiiy nur bilan yoritilganligi. Har qanday xona o'z vazifasiga qarab turlicha yoritilsa bo'ladi. Shunga qarab xonalarga rang tanlanadi. Agar xona derazalari ko'p va katta bo'lsa, bu xona yorug' bo'ladi, shunga ko'ra, bu xonaga to'qroq rang tanlansa bo'ladi. Agar xona derazasi kam va kichik bo'lsa, bunday xona qorong'u bo'ladi, shunga ko'ra bunday xonalarga och rang tanlash kerak.

2. Xonaning dunyo tomonlariga nisbatan joylashishi. Xonalar dunyo tomonlariga nisbatan turlicha joylashgan bo'ladi, shunga ko'ra xonalarga rang tanlash kerak bo'ladi. Agar xona derazasi kun yurishiga qaragan bo'lsa, bunday xona issiq, bu xonaga sovuq rang tanlash maqsadga muvofiq. Agar xona derazasi kun yurishiga teskari qaragan bo'lsa, bunday xona sovuq bo'lib, bu xonaga albatta issiq rang tanlash kerak bo'ladi.

3. Xonaning katta-kichikligiga qarab rang tanlashda, ranglarning kattalashtirib yoki uzoqlashtirib ko'rsatish xususiyatidan foydalaniladi. Agar xona kichik bo'lsa, uzoqlashtirib ko'rsatuvchi rangdan va mayda naqshlardan chiziladi yoki mayda ganch o'ymakorlik ishlari bajariladi. Agar xona katta bo'lsa, bunday xonalarga yaqinlashtirib ko'rsatuvchi rangdan hamda yirik naqshlar va yirik ganch o'ymakorlik ishlari bajariladi.

4. Xonaning qanday maqsadlarda foydalanishiga qarab rang tanlashda ranglarning insonlar ruhiyatiga qanday ta'sir etishini hisobga olish kerak. Dam olish va yotoq xonalariga tinchlantiruvchi ranglardan, mehmonxona va ovqatlanish xonalariga esa, xushchaqchaqlik baxsh etuvchi ranglardan foydalanib rang tanlash kerak. Umuman, kompozitsiyada rang 3 xil qilib loyihalanadi.

Bir rangli kompozitsiya. Bunda faqat bir tusdagi ranglardan foydalaniladi.

Qutbli kompozitsiya. Bunda rang doirasida qarama-qarshi turgan ikkita rangdan foydalaniladi.

Ko'p rangli kompozitsiya. Ko'p rangli kompozitsiyada eng ko'pi bilan 3 xil ranglardan foydalanish kerak

1.5.Ganch o'ymakorligida ishlatiladigan xom-ashyolar.

Qadimiy obidalarining va undagi bezaklarning umri boqiyli shundaki, juda qadimdan ota-bobolarimiz yuqori sifatli, g'oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o'tgan qurilish materiallaridan keng foydalanib kelganlar. Shunday mahalliy materiallardan yog'och, ganch tuproq va boshqalardir. Bu materiallardan qayerda va qanday qo'llanish sir-asrorlarini juda yaxshi bilganlar. Shuning uchun ham asrlar osha hozirgacha ota-bobolarimizning qurgan muhtasham binolari, o'yma ganch, yog'och naqshlari hozirgi kungacha o'z jilvasini yo'qotmay turibdi. Shunday materiallardan biri ganchdir.

Ganch – mahalliy qurilish materiali bo'lib, uning rangi ko'kish, sarg'ish va oq bo'ladi. Ganch turli shaharlarda turlicha nomlar bilan yuritiladi. Kavkazda «gaja», forsha «gaj», tojikcha «ganch», turkcha «urunak» o'zbekcha «ganch» deb yuritiladi. Ganch gips bilan tuproqning tabiiy aralashmasi bo'lib, ganchning tarkibida 40%-70% gacha gips bo'ladi. Ganch ikki xil: tabiiy va sun'iy bo'ladi. Tabiiy ganchlar katta xarsang tosh holida bo'lib, undan to'g'ridan-to'g'ri o'yib, yo'nib, tirnab qurilishda ustun, haykal va bezak sifatida foydalaniladi. Sun'iy ganchlar esa maxsus pechlarda qizdirilib keyin uni maydalab tayyorlanadi. Qadimda maxsus ganch tayyorlaydigan ustalar bo'lib, ularni ganchkoplari deb yuritganlar. Ganchkoplari olib kelingan tabiiy ganch toshlarni yuqori issiqlik quvvati beradigan humdonda 120-150 daraja haroratda kunduz kuni 6-7 soat qizdirib ertalabgacha asta-sekin sovitib qo'yganlar. Erta bilan ganch toshlarni maxsus to'qmoqlar bilan maydalashgan, ularni g'alvir va elakdan o'tkazishgan.

Bu ganchlar sortlarga ajratilgan. Eng mayin, donachali ganchlarni gulganch deb, ya'ni gul o'yish uchun ishlatiladigan ganch deb yuritilgan. Bu ganch qanchalik mayin bo'lsa, o'yma shunchali nafis, badiiy chiqqan. Mayin ganchlar nafis

o'ymakorlikda pardozi ishlatiladi. Yirik ganchlar har xil suvoq, qora suvoq va g'isht terishlarda ishlatiladi. Yuqori haroratda qizdirish natijasida ganch tarkibidagi nam juda kamayib uning quvvati oshadi. Ganch o'rnida alebastro ham ishlatiladi, u suvoq, g'isht terishda, ayrim hollarda esa gulganch o'rnida ham ishlatiladi. Ganch o'ymakorligi bilan shug'ullangan ustalarni ganchkorlar deb ataladi. Ular ganchning quvvatini aniqlash uchun uning qancha haroratida qizdirilishini va qanchalik tez yoki sekin sotishiga qarab aniqlaydilar. Juda katta tajribali ustalar ganchni qo'liga olib qismlaganining o'zidayoq uning eski yoki yangiligini, quvvatini aytib bera oladilar. Odatda, ustalar ganchning quvvatini aniqlashda o'ziga qorib, o'yib ko'radilar. Agar quvvati juda kuchli bo'lsa, hattoki ming martagacha suvda aylantirishni talab qilishi mumkin. Ganchning juda ko'p sirli xususiyatlari bo'lib, undan mohirona, omilkorlik va shoshilmay foydalanish kerak. Ganch qorish texnologiyasi uncha murakkab bo'lmasda o'ziga xos nozik tomonlarini bilish lozim. Ganchni qadimgi ustalar sirli lagan idishlarda qorganlar, hozir esa yangi plastmassa idishlardan foydalaniladi. Ganch qorishning tez ganch, soxta ganch, do'g'ob usullari bo'lib, ular o'ziga xos nozik yoki murakkab bo'ladi. Qorishma tayyorlashda uni ushbu nozik tomonlarini e'tiborga olish ustalarning asosiy vazifasidir.

Tezganch – tez qotuvchi ganch qorishmasi bo'lib ganchkorlikda, ravoq bog'lashda, suvoq va har xil ishlarda ishlatiladi. Bu qorishmani tayyorlash uchun idishga suv solib ustidan ganch solinadi va tezkorlik bilan qoriladi, ganchni ko'p aylantirilmaydi hamda kerakli joyga ishlatiladi. Tezganch qorishmasini tezlik bilan ishlatilmas u qotib qoladi hamda isrofga chiqadi.

Soxta ganch-qorilgandan keyin 30 minut atrofida qotmasdan turadi. Soxta ganch qori1 masini tayyorlash uchun idishga suv solini ustidan elangan ganch suv yuzasiga sepib solinadi. Bu suv yuzasi ganch bilan berkitilgunga qadar takrorlanadi. Bunda ganch suvga to'yib boradi. Usta idishda shu soxta ganch qorishmasini bir chekkadan solib kerakli joyga ishlatadi.

Do'qob usuli-biror yuza yoki narsani to'ldirish yoki berkitish uchun ishlatiladigan suvli qorishma. Idishga suv solinib suv yuzi berkitilguncha ganch sepiladi. Bu usul-

soxta ganchga qaraganda biroz suyuqroq bo'ladi. Bu ganch qorish narsalarni berkitish yoki to'ldirish uchun ishlatiladi.

Xovonda-gul o'yishga mo'ljallab ma'lqadar kuchi kamaytirilgan ganch qoriladi. Uni tayyorlashning o'ziga xos tomonlari bor. Buning uchun sirli yoki plastmassa tog'oraga suv solinadi. Unga elangan mayda ganchni ohista, shoshilmay solinadi, Ganch suv yuziga chiqib ketmasligi uchun idish osti kafti bilan davra shak aralashtiriladi. Tayyorlangan qorishma bir qota boshlaganda uni ishlatish mumkin. Ganch qanchalik kuchli bo'lsa, shuncha marta ko'p qoriladi. Shuning uchun qadimgi ustalar yuqori quvvat ganchlarni ishlatganlar. Ular xovondani mohirlik bilan tayyorlashgani uchun ishlari bejirim nafis va go'zal chiqqan. Ustalar yuqori quvvat ganchlarni juda ko'p qorganlar. Shuning uchun ganch qorishma shuncha nafislashgan, mayinlashgan. Sekin va yumshoq holatda qotgan xovondaga ustalar shirach qo'shadilar. Shirach uning quvvati oshirgan. Ganch o'rniga gips ham ishlatiladi.

Gips-oq, rangsiz shaffof, qizil, qoramtir yoki qora rangdagi mineral. U juda mo'rt bo'z suvda eriydi. 80-90° haroratda qizdirilgan: ganch tarkibidagi suv bug'lanib ketadi. A) 120-140° qizdirilsa alebastrga aylanadi. qurilish materiali, undan qog'oz, sement sifatida, meditsinada, haykaltaroshlikda, o'ymakorlikda va bo'yoq ishlarida ham foydalaniladi. Gips suvga chidamsiz, Shuning uchun gipsni ham asrash uchun usti suv o'tmaydigan muhofaza pastlar yoki bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Gipslardan umuman quruq suvoq, devor toshlari, to'siqlar» qavatlararo yopmalar, karnizlar, tovush yutuq material va yong'indan muhofazalovchi buyum yasaladi. Gips hozir ayniqsa, ganch o'rnida ham ishlatilib kelinmoqda. Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston, Shimoliy Kavkaz va boshqa yerlarda gips konlari bor. Qadimda gips toshlar 200-250° qizdirilsa, hosil bo'lgan gipsning qotishi sekinlashib, quvvati oshgan. 400-750° haroratda qizdirilganda esa u yonib kuygan, ya'ni yaroqsiz gips deb ataladi. 200-250° dan kam qizdirilgan ganchning quvvati past hisoblangan. Lekin qadimda misrliklar mashhur piramidalarni qurishda gidravlik gipslarni ishlatganlar. Bu gipslarni 800° da qizdirib asta-sekin sovitish natijasida gidravlik gipslarni olganlar hozir bu texnologiya unutilib, bizgacha yetib kelmagan.

IX-X asrlarda xom g'isht o'rniga pishirilgan g'isht ishlab chiqarilgan. G'isht terishda loy o'rniga ganch ishlatilgan.

XIV-XV asrlarga kelib ajoyib texnologik xususiyatlarga ega bo'lgani uchun undan binolarning qobirg'alarida, ya'ni hozirgi betonlar o'rnida ishlatilgan. O'rta Osiyoda ganchkorlikning gullab yashnagan davri XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlari bo'ldi. Ganchkorlik o'z husni jamolini dunyo me'morchiligida, shu jumladan O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston va boshqa Sharq mamlakatlari me'morchiligini namoyon etib kelmoqda. Ayniqsa Osiyo xalqlarining tajribasi ular yaratgan asarlar o'ziga xos kompozitsiya va ishlash uslublari, texnologiyasi bilan boshqalardan farq qiladi. Ganchni qadimdan g'isht terishda, suvoq ishlarida hamda nafis o'ymakorlikda keng ishlatib kelingan. Ganchning qadimdan ishlatilib kelinishining sababi uning bu xususiyatlarini bilib davr sinovlaridan o'tkazib, keng foydalanib kelganlar.

Ganch o'zidan sovuqni va issiqni juda kam o'tkazadi. Bu xususiyatlarni bilgan xalq me'mor ustalari uylarning devor, shift, hattoki polini zax o'tmasligi uchun ganch bilan suvaganlar. Qadimda qurilgan uy, machit, madrasalarni ichiga kirsangiz pechkasiz, hech qanday elektr isitgichsiz xona qishda issiq bo'ladi. Yozda esa bu xonalar juda salqin bo'lgan. Chunki birinchidan devor qo'sh sinchli qilinib orasida bo'shliq qoldirilgan, ikkinchidan devorlar qalin ganch suvoq qilinganligidir. Hozir esa qalin beton uylar qishda sovuq, yozda esa qizib ketadi. Bu inson sog'lig'iga umuman salbiy ta'sir etmoqda. Betonni ham o'z o'rnini va ishlatish joyi bor. Bizning mahalliy sharoitimizda mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Ganchning yana bir ijobiy tomonlaridan biri uning yengilligidir. Ganch betonga qaraganda 38- 40% yengil bo'lgani uchun har xil gumbaz va maxsus binolarni qurishda ishlatiladi. Shuning uchun qadimiy qurilgan arxitektura binolarining gumbaz va maxsus joylarini har xil quyma bezaklari faqat ganchdan qilingan.

Ganchning yana ijobiy xususiyatlaridan biri uning fizik-mexanik xususiyati yaxshi bo'lganligidir. Masalan, ganch qotgandan so'ng torayish o'rniga kengayadi, bu esa yog'och konstruktsiyalarni yanada mustahkam bog'lab turadi. Ganchning xususiyatlaridan yana biri u yuqori bosimga chidamli egiluvchanligi, (mo'rt

emasligi) ya'ni qattiq zarbada ham sezilar-sezilmas darajada o'z-o'zidan amortizatsiya berish qobiliyatiga ega. Ganch bilan terilgan g'isht devor yoki ganch suvoq dahshatli zilzilalar bo'lganda ham zarar ko'rmaydi. Ganch plastik, tez yopishib qolishi, devor va shiftni sidirg'a suvashda, shakllar tayyorlash, o'yma naqsh, tasvir ishlash, ustidan bo'yab tasvir va naqsh ishlashda qulaydir. Ko'p risolalarda, ganch suvga chidamsiz deb ko'rsatilgan, ya'ni ganch ko'pincha binoning ichkarisida ishlatiladi deyiladi. Lekin bu fikrga men to'liq qo'shila olmayman, chunki ota-bobolarimiz qadimda juda kuchli ganchlar tayyorlay olish sir-asrorlarini bilganlar. Shuning uchun ham hattoki binoning yomg'ir, qor tushadigan tom, gumbazlarining g'ishtlarini ganch bilan terganlar. Ulardan hech qachon chakki o'tmagan. Bu holatni hozirda saqlanib qolgan minglab arxitektura yodgorliklarida ko'rish mumkin. Ota-bobolarimiz ganch tayyorlash va uni ishlatish sir-asrorlarini juda yaxshi bilganlar. Ular hattoki hammomlarning ichki qismini ganch bilan suvaganlar. Ganch suvoq parda ko'chib tushmagan. Ustalarimiz kir qorishmasi deb ataladigan ganchni hammomda ishlatganlar.

Qorishmani tayyorlash va undan foydalanish quyidagicha bo'lgan. Bir chelak oxak, bir chelak qum, mayda ko'mir kukuni hamda har xil qamish kulini qo'shganlar. Bu qorishmani olovga qo'yib 10-12 soatlab aylantirib pishitib keyin suv turadigan hovuzlarni suvaganlar. Uning kichik yoriqlarini yo'qotish uchun sut bilan qorilgan ganch bilan suvaganlar. Bunday suvoqlar juda namgarchilikka uzoq chidagan. Binolarga g'isht terishda va suvoq ishlarida «ganchxok» ishlatilgan. Bunda bir chelak alebastr yoki tezganch, bir chelak qum va bir chelak soz tuproqni elamasdan obdon aralashtirilgan. Xolvaytar holatida aralashtirib kerakli yuzaga kaft bilan chapib surtiladi. Bu suvashni ganchkor ustalar «kapganch» deb ataydilar. Ganch tuproqqa o'xshagan qoramtir bo'ladi. Avvalgi ustalar ishdan chiqqan ganchlarni tashlab yubormasdan qayta ishlar edilar, ya'ni ganchni qozonga solib qizdirganlar. Ganchni qayta ishlash natijasida ganch oldingi quvvatiga kelgan. Qayta ishlangan ganchlarni suvoq va g'isht terishda ishlatganlar. Ganch akustiklik xususiyatiga ham ega. Ganch bilan suvalgan xonada tovush jaranglab chiqadi. Chunki tovushni ganchli devor yaxshi qaytaradi. Shuning uchun ganch bilan suvalgan katta zallar yorug' va akustiklik xususiyatiga ega. Shuning uchun ilgarilari

juda katta zallarda hech qanaqa mikrofonisiz majlislar olib borganlar. Ganchga mineral bo'yoqlar qo'shib, rangli ganchlar ham tayyorlangan. Ganch o'ymakorligida qirma, ya'ni o'yilgan yerlarini rangli qorishma bilan to'ldiriladigan ganch o'ymakorlik turidir. Ruschada «ganchevaya mozaika» deb yuritiladi. Naqsh turning eng kenjasi qirmadir. Qirma ganch o'ymakorlikning bir turi bo'lib, o'yib olingan chuqurchalariga rangli qorishma kiritilgandir. Qirmaning ham o'ziga xos xususiyatlari bor. U ko'p rangni xohlamaydi. Shu bilan birga uning pardozi ham odatdagidek emas. Qirmaga necha xil rang ishlatilsa, o'shancha marta ish bosqichi ortadi. Bunga sabab nusxada bir-biriga yaqin qo'yilishi kerak bo'lgan bo'yoqlarning o'rinlari bir yo'la o'yilgan bo'lsa rangli qorishmani qo'yganda boshqa rang kirishi zarur bo'lmagan o'rniga ham tushib ketadi. Buning uchun naqqosh oldin bir xil rangni o'yib chiqib bo'lgach rangli qorishma quyadi va naqsh sathini tekislab qirib tashlaydi. Shunda bo'yoq kirgan chegaralari aniq va chiroyli bo'lib turadi. Keyin yana qayta axta yordamida ikkinchi marta nusxa tushirib bu safar ikkinchi bo'yoqning o'rnini o'yadi, rang tayyorlab quyadi va yana oldingisi singari naqsh sathi (yuzi) ochilguncha qiriladi.

Uchinchi, to'rtinchi rangli qorishma kiritilmoqchi bo'lsa, xuddi shu ish bosqichi yana takrorlana beradi. Shuning uchun sirmada ranglar soni asosan 2-3 xildan ortiq bo'lmaydi. Jirma yaxlitligi va rang turining kamligi bilan rangli naqshlardan yaqqol ajralib turadi.

Rangli ganch tayyorlashda avvalgi ustalar ko'mir kukunidan tegirmonda maydalangan qizg'ish yoki jigarrang g'ishtlarning kukunidan foydalanganlar. Hozir esa tayyor har xil rangli pigmentlardan foydalanilyapti.

Rangli pigmentni ganchga qancha ko'p qo'shilsa ham ganch uning kuchini kesib mo'tadil holga keltirib qo'yadi. Mineral bo'yoq nisbati 1:10 dan oshmasligi kerak, aksincha tayyorlangan rangli ganchning quvvati pasayib ketadi. Odatda qirmaga quruq qorishma tayyorlashda ustalar biror idishni o'lchov qilib, ganchga o'zlari xoxlagancha zarur bo'lgan rangdan qo'shib quruqligida aralashtiradilar. So'ngra bu quruq aralashmadan o'rniga qarab ozozdan qorib ishlatadilar. Oldindan quruq

aralashma tayyorpab olinmasa, qorishmaning rangi har gal to'qlashib qolishi mumkin.

Qirma rang jihatidan rangli naqshga, ishlash texnikasi ganch o'ymakorligiga yaqin. Uning yana bir xislati shuki, quyosh nuri tushsa ham yaltiramay, bir xil mayinlikda ko'rinadi. Vaqt o'tishi bilan naqsh ustini chang bossa uni qaytadan qirib yangiday qilish mumkin. Qirma pardozni ko'pincha Usta Shirin Murodov, Quli Jalilov va boshqalar qo'llaganlar.

Qadimdan g'isht teruvchi va ganch o'ymakor ustalar maxsus tayyorlangan shirachni ganchga qo'shib ishlatganlar.

Shnrach-lotincha eremurs, ruscha, kley. Shirach ganch o'ymakorligida va g'isht bilan terishda qadimdan foydalanib kelingan. Shirachni ganchga qo'shishdan maqsad ganchni sekin qotishini va qotgandan so'ng toshga o'xshash qattiq bo'lib qolishini ta'minlashdir. Arxeolog olimlar 1933 yili B. G. Zasipkin va V. P. Vyatkinlar O'zbekistondagi arxitektura yodgorliklaridagi g'isht terishda va o'yma ganch qoldiqlarini tekshirish natijasida ustalar ganchga maxsus tayyorlangan shirach qo'shib ishlatganliklari ma'lum bo'ldi. Shirach qo'shib ishlangan o'yma ganchning quvvati 0,5-45% gacha oshgan. O'zbekistondagi arxitektura yodgorliklarining hammasi shirachli hamda qadimgi baquvvat ganchlardan ishlangan. Shuning uchun bu arxitektura yodgorliklari bir butun monolit toshga aylanib qolib har qanday zilzilaga bardosh bera olgan. Qadimda shirach tayyorlaydigan maxsus ustalar bo'lgan. Masalan, Buxoroda Amir Olimxon hukmdorligi davrida Sitorai Mohi Xosa bosh qarorgohining oq zali Usta Shirin boshchiligida bezalgan. 1912-1914 yillarda Sitorai Mohi-Xosani bezashda maxsus shirach tayyorlaydigan ustani chaqirib, o'sha erda shirach tayyorlatgan va Usta Shirin Murodovga etkazib turgan. Bu shirachni toshoyna zaminli o'ymaga ishlatgan. Shirach tayyorlaydigan maxsus ustalar qassoblardan buqacha yoki qo'yning payi va suyagit sotib olganlar, keyin o'to'simlik va maxsus o'tlarni qozonda asta-sekin olovda qaynatganlar Uni to'xtovsiz aylantirib suyuqlik qaynaganda hosil bo'lgan ko'piklarni tez-tez olib turilgan chunki ko'pik olib turilmasa tayyorlanayotgan shirachning quvvatiga putur etkazadi. Juda ko'p bir tekisda qaynatilgan va asta-sekin sovitilib (hosil bo'lgan

shirach massani maxsus idishlarga solib ganch o'ymakor ustalar olib borganlar. Ganch o'ymakor ustalar ma'lum miqdorda ganchga, shirachni qo'shib ishlatganlar. Hattoki bu tayyorlangan maxsus shirachlarni chet ellarga, ya'ni Angliyaga va Shvetsiyaga sotganlar. Qadimgi me'morlarning imoratlarini bunchalik pishiq puxta, chidamli hamda mukammal qurilgani butun dunyo olimlarini hayratga solmoqda. Ganchni sekin qotishi uchun ariq suvlari, sirka va qorilgan ganchga sut qo'shganlar. Lekin bunda ganchni quvvati biroz kamaygan. Hozirda ba'zi bir ustalar masalan, Samarqand ganch o'ymakor ustalari ganchga shirach qo'shib ishlatayaptilar. Keyingi yillarda shirach tayyorlash texnologiyasi juda keng qo'llanilmoqda.

Bino detallari, ustunlar, haykalchalar, sharafa, muqarnas, hajmli naqsh va boshqa narsalarni quyma usulida olishga sut, kazein shirachi va boshqa narsalar qo'shganlar. Bular esa ganchning quvvatini yanada oshirgan, umrini uzaytirgan. Qadimgi ustalar har qanday yangi binoni kamida ikki yildan oshiqroq vaqt ichida bezaganlar. Chunki bino obdon qurishi va erga yaxshilab cho'kib o'rinishi kerak bo'lgan. Aks hol da bir necha yillardan keyin har qancha chiroyl baquvvat qilingan bezaklar yorilib, ko'chib yoki to'kilib ketgan. Shuning uchun ham Toshkentda 1966 yili aprelda sodir bo'lgan zilzila oqibtida juda ko'p yangi binolar buzilib, undagi bezaklar va suvoqlar tushib ketgan, hattoki binolar ag'anab tushdi, lekin bir necha asr avval qurilgan arxitektura yodgorliklari va undagi bezaklar umuman shikast emadi.

II.BOB. Intererda ishlatiladigan bezaklar, ganch o'ymakorligi san'atida naqsh kompazitsiyasining turlari va chizishning asosiy qoidalari.

2.1.Kompozitsiya haqida asosiy ma'lumotlar.

Barcha xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan jamiki naqshlar borki, ular tabiat va voqelikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning o'zidan olingan. O'simliklar faqat bir tomonga qarab o'sadi. Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyuladi, lekin haqiqatda u ildizdan tana, tanadan novda, novdadan barg bo'lib, bir tomonlama yo'nalishda davom etib o'sadi. Tabiatning bu qonuni naqshda o'z aksini topgan. Ustalar chizadigan naqshlarni ko'rganda shunchaki qog'oz betini to'ldirish

emas, balki ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun- qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizish tushuniladi. Shuning uchun ganchkor ijodida eng qiyin va eng mas'uliyatli bosqich kompozitsiya nusxasini chizishdir. Agar naqsh kompozitsiyasi tabiat qonuniga zid bo'lsa, o'yishda va pardozda har qancha yutuqqa erishilsa ham ish ko'ngildagidek chiqmaydi. Haqiqatdan ham qaraganimizda o'yma naqsh juda chiroyli va jozibali ko'rinadi, lekin birozdan so'ng undagi nuqsonlar sezilib qoladi. Chunki tabiat qonuni hamma yerda ustuvordir.

Kompozitsiya — lotincha so'zdan olingan bo'lib, to'qish, ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish degani. Kompozitsiya ritm, simmetriya, assimetriya, komponovka, davriy takrorlanish, markaz topish, bezakning dinamikligi, tabiiyligi, chiroyliligi, pardozning va rangning uyg'unligi kabi qoidalarni o'z ichiga oladi.

Kompozitsiya har qanday mutaxassislikda, har qanday san'atda va har qanday sohada qo'llanishini misol keltirish mumkin. Masalan, shaxmat taxtasi 64 ta katakdan iborat, uning donalari esa oq va qora donalari birgalikda 32 ta bo'lib, shu donalarni bir-biriga nisbatan ma'lum tartibda joylashtirib, juda ajoyib o'yinlar ko'rsatish mumkin. Yana bir misol musiqada 7 ta nota bo'lib, ularni bir-biriga nisbatan turli tartibda joylashtirib, «cho'li yiroq», «shashmaqom» kabi ajoyib kuylarni bastalash mumkin. So'z mulking sultoni ulug' bobomiz Alisher Navoiy ham so'zlarni bir-biriga nisbatan mos joylashtirib, butun insoniyatni lol qoldiradigan g'azallar yaratganlar.

Komponovka haqida ma'lumotlar.

Komponovka (joylashtirish) — chizish kerak bo'lgan shakl yoki biror tasvirni qog'oz yoki biror yuzaga to'g'ri joylashtirishdir. Komponovka barcha mutaxassislik va sohalar uchun katta ahamiyatga ega. Naqqosh o'zi chizmoqchi bo'lgan naqshni yuzaga to'g'ri joylashtirishi kerak. Ganch o'ymakor o'yilishi kerak bo'lgan naqshni devor yuzasiga to'g'ri joylashtirishi uning ish sifatiga katta ta'sir etadi. Hunarini yanada nafisroq ko'rsatadi.

Endi bir kichik psixologik tarjiba o'tkazsak. Bog'cha yoshidagi bir bolaga bitta guldon berib, xontaxta ustiga qo'yishni buyursak, bola guldonni, albatta, xontaxtaning o'rtasiga qo'yadi yoki stol atrofida ikki hamsuhbat o'tirgan bo'lsa, ulardan biri stol o'rtasida turgan taqsimchani chetga surib qo'ysa, hamsuhbati o'zi

bilmagan holda taqsimchani, albatta, o'rtaga surib qo'yadi. Bu albatta bo'ladigan hodisa. Demak, inson psixologiyasi shunga o'rgangan, chunki bir guldorning yoki taqsimchaning stol chekkasida turishi insonga g'ayritabiiy ko'rinadi.

Har qanday kompozitsiya nafis, ko'rkam va chiroyli ko'rinishi uchun komponovka asosiy vazifani bajaradi. Komponovka deganda chizish yoki o'yilishi kerak bo'lgan naqsh yo tasvirni qog'oz, ganch yoki yuzaga to'g'ri joylashtirish tushuniladi.

Komponovka to'g'risida so'z yuritilganda, ganch o'ymakor usta uchun muhim tomonini hisobga olish kerak. Xonalarning ichki yuzasini ganch bilan pardoqlashda naqshlarni o'z o'rniga joylashtirishga katta ahamiyat berish, xona pardoqlanishining yuksak darajada bo'lib, kishilarga estetik zavq berishiga katta yordam beradi. Avvalambor, xonaning qanday naqshlar bilan pardoqlanishi xonaning qanday maqsadlarda foydalanilishiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda xona o'lchamlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, katta va baland xonalarga katta naqshlardan, kichik va past bo'lgan xonalarga esa, kichik, mayda qilib ishlangan naqshlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kompozitsiyada simmetriya.

Simmetriya -grekcha so'zdan olingan bo'lib, o'lchovlarning bir-biriga mutanosibligini bildiradi. Bu yerda o'quvchilarning diqqatini shunga qaratish kerakki, ular simmetriyani o'rta maktabda ham o'tganlar, lekin endi ular mutaxassis nuqtayi nazaridan bu mavzuga yondashishlari kerak. Bunda o'quvchilarga tabiatda, yon-atrofda bo'lgan bir-biriga simmetrik shakllar o'lchovlarini misol keltirish kerak. Masalan, eng avval, inson tuzilishidan boshlasak, bu yerda ham simmetriya mavjudligini ko'rish mumkin. Endi tabiatdan misol keltiradigan bo'lsak, oddiy atirgul bargi besh bargdan iborat bo'lib, ular o'zaro simmetrik joylashgan. Uy bekalari dasturxon bezashda xontaxta ustiga qo'yiladigan noz- ne'matlarni joylashtirishda ham simmetriyaga amal qilishlari kerak bo'ladi. Naqqosh o'zi chizayotgan naqshda ham simmetriyaga amal qilishi kerak. Naqshni qog'ozga tushirishdan boshlab, xona devor yuzasiga naqshlarni joylashtirishgacha simmetriyaga asosan ishlashi kerak.

Kompozitsiyada ritm.

Ritm — naqsh elementlarining ma'lum masofada bir tekis takrorlanib kelishi bo'lib, naqshdagi harakatning uzluksiz va go'zal ko'rinishini ta'minlaydi. Ritm xususida gap yuritiladigan bo'lsa, tabiatda uchraydigan ritm haqida fikrlasak, insonning yurak urishi, nafas olish ritmi sog'lom kishida bir maromda bo'ladi, agar bu ritm buzilsa, kishi salomatligida nuqsonlar bo'ladi. Bahor faslida o'simlik shoxidagi kurtaklarning joyla- shuviga razm solsak, ular bir xil masofada joylashgan, bu ham o'ziga xos ritm hisoblanadi. Laylaklar uchishini kuzatsak, ular ham bir-biridan bir xil masofada uchishadi va masofani hech qachon buzmaydilar. Demak, ritm tabiat qonunidir. Mana endi ritmni san'at, adabiyot, amaliy bezak hunarmandchiligi nuqtayi nazaridan ko'zdan kechiramiz. Musiqa sohasidagi ritmni olsak, musiqadagi notalar orasidagi masofa, ularning og'ir yoki yengilligi bir tekis bo'lishi kerak. Agar shashmaqomni tinglayotgan paytda rok musiqa ulanib qolsa, tinglovchi qanday ahvolga tushishini ko'z oldingizga keltirib ko'ring. Ganch o'ymakorlik ishlarida kompozitsiya ishlashda naqsh elementlarini ma'lum masofada bir tekisda takrorlab, naqsh harakatining uzluksiz va go'zal ko'rinishini ta'minlash mumkin.

Stilizatsiya.


Stilizatsiya - tabiatdagi o'simlik, hayvon va boshqalarning tasviri, rangi, shakli hamda tuzilishini badiiy usulda umumlashtirish.

Har qanday naqqosh naqsh chizishda o'simlik elementlaridan shox, poya, g'uncha, barg, gul; hayvonotlar, qushlar, tabiat manzaralari, tog'lar, daryo, anhorlar, quyosh, yulduzlar va boshqa ko'rinishlardan foydalanib, juda ajoyib ko'rinishlarni hosil qiladi. Buni ko'rgan inson unda aks ettirilgan shakldan zavq oladi. Masalan, bog'cha yoshidagi bola o'z rasmida aylana va uning vatariga perependikular chiziqlar o'tkazsa, uni ko'rgan kishi quyosh deydi. Xuddi shunday ganch o'ymakor ustasi ham stilizatsiyadan foydalanib, juda chiroyli va nafis shakllar yaratishi mumkin.

Markaz topish.


Har bir mutaxassislikda har xil shakllarning markazini to'g'ri topish katta ahamiyatga ega. Usta naqsh yoki shaklning tushirilishi lozim bo'lgan yuzaning

markazini to'g'ri topsa, naqsh yuzaga to'g'ri joylashib, simmetriya va komponovka buzilmaydi. U shakllarning markazini topish uchun geometriyadan bessektritsa, deogonal, radius degan tushunchalardan xabardor bo'lishi kerak.



Shakllarni teng qismlarga bo'lish.

Shakllarni teng qismlarga bo'lish xuddi markaz topish kabi katta ahamiyatga egadir. Chunki shakllar to'g'ri qilib teng qismlarga bo'linsa, kompozitsiyadagi simmetriya, ritm buzilmay, shakl nafis, bir tekis harakatda chiroyli chiqadi. Bundan tashqari chizilayotgan naqsh yoki shaklning bir qismi chizilib, qolgan qismiga esa nusxa ko'chiriladi.



2.2.Kompozitsiyada yorug'lik, nur va soya.

Kompozitsiyada yorug'lik mavzusini yoritishda o'qituvchi, eng avval, yorug'lik manbalari haqida ma'lumot berib, tabiiy va sun'iy yorug'lik haqida, quyosh va turli xil yoritish anjomlari haqida gapirishi kerak. Chunki kompozitsiyaning nafis va chiroyli ko'rinishida yorug'likning ahamiyatini tushuntirishi lozim. Haqiqatan ham chuqurroq fikr yuritsak, naqsh, ganch o'ymakorlik san'at namunalari ko'rgazmalarini namoyish etishda yorug'lik va yoritish anjomlarining ahamiyati benihoya kattiligini ko'rish mumkin. Shu o'rinda teleko'rsatuvlar tayyorlashda chiroq ustasining mehnatini aytib o'tish joiz bo'ladi. Tasviriy san'at yoki grafika asari namunasi chizilayotganda namunani yoritish, yorug'lik qaysi tomondan qanday miqdorda tushishining ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish kerak bo'ladi. Faqat bugina emas, balki san'at asari ko'rgazmasida ham yorug'likka ahamiyat berish lozim.

Masalan, yuksak did bilan o'yilgan ganch o'ymasiga yorug'likni keraksiz joydan tushirsak, uni ko'rgan kishi uning jozibasi yo'qolganining guvohi bo'ladi. Yoki kishi yuziga yorug'likni dahanining pastki qismidan tushirsak, qanday qiyofa ko'rinishini ko'pchilik kuzatgan bo'lsa kerak. Kompozitsiyada soya to'g'risida gapirish uchun nurni bilib oldik, chunki nur va soya doim birgadir, nur borki soya bor deb bekorga aytishmagan.

2.3.Kompozitsiya tuzishda ishlatiladigan naqsh elementlari

Ganch o'ymakorligida naqsh chizish muhim ahamiyatga ega. Naqshlar qaysi bino yoki buyumni bezamasin, o'ziga xos uslub va texnologiya talab qiladi. Albatta, naqshlardagi mazmun va ma'noni o'qiy olish uchun kishida badiiy ma'lumot, o'ziga xos bir san'at bo'lishi kerak. Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma'noni bildirib, elementlari ma'lum tartibda takrorlanadigan o'simliksimon, geometrik shakllar, hayvon, qush va boshqalarning sxematik tasviridan tashkil topgan bezak. Har qanday materialga naqsh ishlash mumkin. Chunonchi, toshga, ganchga, misga, yog'ochga o'yish yoki qog'oz, mato, ganchga chizib, bo'yab ishlash va hokazo. Albatta, ularni ishlashdan oldin naqsh chizish geometriyasini bilish zarur.

Ganch o'ymakorligida ishlatiladigan naqshlar mazmuniga ko'ra o'simliksimon, geometrik, gulli girix, ramziy va boshqa turlarga bo'linadi.

O'simliksimon naqsh -tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g'uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan hosil qilingan naqshdir.

Geometrik naqsh turlaridan biri girix bo'lib, chigal, tugun degan ma'noni bildiradi. Handasaviy naqsh murakkab naqsh turi, u geometrik naqsh turlaridan biri bo'lib, to'rtburchak, uchburchak, aylana va yo'ylar hamda ko'pburchaklardan tashkil topadi. Tuzilishi jihatidan to'g'ri chiziq, egri chiziq va aralash chiziqlardan tashkil topgan girixga bo'linadi. Geometrik naqsh uzluksiz rapportlardan tashkil topgan bo'lib, har bir rapport o'z tuzilishiga ega bo'ladi. Yevropada u arabeska deb yuritiladi.

Gulli girix o'simlik va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topgan. Uning elementiga yuqorida sanab o'tilgan geometrik va o'simliksimon naqshlar kiradi.

Ramziy naqshlar esa kabutar, sher, baliq, davlat gerbi va boshqalarni stillashtirib tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topadi. Ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, g'uncha, kabutar, tovus va boshqalarning tuzilishini, o'sish qonun-qoidalarini, ko'rinishlarini sinchiklab o'rganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash uchun har xil elementlarni umumlashtirib olganlar. Bunda gulning qaysi holatdagi (ustidan, yonidan yoki tagidan) ko'rinishi go'zalligi tanlab olinadi. Umuman, naqsh kompozitsiyasini yaratishda naqsh elementlarini chizish naqsh ishlashning alifbosi hisoblanadi.

Barg - o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, naqqoshlar tomonidan tabiatdagi o'simlik bargining stillashtirib olingan tasviri.

Barg naqsh kompozitsiyasida to'ldiruvchi va husn beruvchi element. U tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Oddiy barglarga uch barg, bodom bargi, tol bargi va boshqalardan iborat. Murakkab barglar esa ko'p barg, shobarg, sadbarg va boshqalardan iborat. Barglarning quyidagi turlari bor. Chunonchi, shohona barg — eng katta barg, qush barg, ko'p barg, chor barg, xurmo bargi, tol bargi, anor bargi, qashqarcha barg, maxodil barg, qo'shbodom barg, qalampir barg, nok bargi, sambit barg, butoq barg va boshqa 50 dan ortiq turlari bor.

G'uncha -tabiatdagi g'unchalarni usta tomonidan stillashtirib olingan tasviri.

Gul - tabiatdagi gullarni naqqoshlar tomonidan stillashtirib olingan tasviri. Gul naqsh kompozitsiyada to'ldiruvchi va husn beruvchi element hisoblanadi. Gullarning har xil turlari bo'lib, ular o'ziga xos nomlanadi.

Shukufta - o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, novdalarni bir-biri bilan bog'lash va yuzalarni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Shukufta tuzilishi jihatidan turlicha bo'ladi, bir yerda kichik sodda bo'lsa, ikkinchi o'rinda anchagina takomillashgan, uchinchi o'rinda ikki tomondan kelayotgan shukufta qo'shilib, maxodil yoki shunga o'xshash shaklni hosil qiladi.

Bog'lam va sirtmoqlar - o'simliksimon naqsh elementlari bo'lib, bandi rumiy boftaning oddiy turi hisoblanadi. Ikki tanobning uchini sirtmoqsimon egib, o'ziga bog'lashni sirtmoq deyiladi. Sirtmoqlar bir-biri bilan chigallashib o'tadi, umumiy ko'rinishi esa xuddi sakkiz raqamini eslatadi.

Bofta — tanob aylanib o'tib hosil qilgan shakl. Islimi naqsh elementi. Boftalar to'g'ri, egri hamda aralash chiziqlardan tashkil topgan bo'ladi.

Marg'ula — qo'sh chiziqli gajak, o'simliksimon naqsh elementi, u misgarlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik va boshqa hunarlarda ishlatiladi. Agar bir novdaning uchida ikki marg'ula hosil bo'lsa, uni **qo'sh marg'ula** deb yuritiladi, agar novda bilan marg'ula tasvirlangan bo'lsa, **marg'urali novda** deb yuritiladi. Naqsh kompozitsiyasida marg'ula to'ldiruvchi element hisoblanadi.

Barg (novda) — o'simlik bandi, o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, u gullarning novdasi hisoblanadi, band tabiatdagi daraxt yoki o'simliklarning novdasini stillashtirib olingan tasviridir. Har bir naqsh elementi singari bandning ham kompozitsiyada qo'llanilishining o'ziga xos qoidalari bor. Masalan, bandning aniq bir o'lchamda bo'lishi, kompozitsiyada gullarga nisbatan saqlanishi, uning naqshda gullar, barglar hamda tanoblarning tagidan o'tishi va hokazo.

Tanob va novdalar. Tanob — arabcha chilvir, arqon degan ma'noni beradi. Murakkab naqshlar kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negizi va naqshga shakl beruvchi chiziq tanob deyiladi. O'rta Osiyo naqshlarida bir xil yo'g'onlikdagi chiziq bo'lib, tabiat manzarasida uchraydigan daryoning shartli tasviri deb olingan. Naqsh kompozitsiyasini chizishdan oldin, birinchi navbatda, tanob tortib, keyin novdalar chiziladi, so'ngra novdalarning yo'nalishiga qarab gullar joylashtirib chiqiladi.

Naqsh kompozitsiyasida tanob birinchi rejaga qo'yiladi. Tanob ustidan hech qachon gul, novda yoki barg bosib o'tmaydi. Tanoblar xilma-xil bo'lib, bir kompozitsiyada tanob boshlanganicha uzluksiz davom etadi, ba'zi hollarda tanob ikki nuqtadan boshlanib, bir-biriga qarab yo'naladi va bir-biriga chirmashib tugallanadi. Tanob egri, to'g'ri yoki aralash chiziqlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin, agar kompozitsiyada tanoblar bir-birini kesib o'tmay, bir-biriga parallel bo'lsa, bunday naqsh *qo'sh tanobli islami* deb ataladi.

Agar tugallangan mustaqil kompozitsiya bo'lsa, *qo'sh tanobli namoyon* deb ataladi. Kompozitsiyada tanob birdan ortiq ham bo'lishi mumkin, bunda biri bosh, ikkinchisi yordamchi tanob deyiladi. Kompozitsiyada tanobning ustidan novda, gul, barg va boshqalarning o'tishi mumkin emas.

Har bir ganch o'ymakorligi sirlarini o'rganmoqchi bo'lgan o'quvchi naqsh elementlarini chizish ilmini yaxshilab egallamog'i kerak. Bunga qiziqishini yanada oshirish uchun o'quvchi har bir naqsh elementini quyida keltirilgan ganchdan tayyorlangan kitobcha ustiga chizib, uni o'yishni mashq qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ganch o'ymakorligi kompozitsiyalarida pardoz turlari.

Ganch o'ymakorligi kompozitsiyalarini yaratishda, ganchkor pardoz turlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lib, ularni bir-biridan farqlay olishi, ularning qayerlarda qo'llanishini bilishi katta ahamiyatga ega. Chunki kompozitsiya pardoz turiga qarab o'zgaradi, ganch o'ymakorligida asosan 4 xil pardoz turlari ishlatiladi.


1.Pax pardoz — bunday pardoz berishda naqsh elementlari bir tomonga qiyalab kesiladi. Bunday pardoz boshqa pardoz turlariga qaraganda juda oson bo'lib, o'ymadagi nur va soya yumshab, mayin ko'rinishga ega bo'ladi. Bunday pardoz beriladigan naqsh kompozitsiyasi ikki chiziq orqali chizilib, baland yuzalarda qo'llansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

2.Choka pardoz (yorma pardoz) — naqsh elementlarining qiyaligi o'rta olib, uzunasiga o'yilgan pardoz turi. U baland bo'lmagan xona devorlarida ko'p qo'llaniladi, nur va soya yaxshi ko'rinadi. Choka pardoz kompozitsiyasida naqsh elementlari uchta chiziqlar yordamida chiziladi.

3.Lo'la pardoz — o'yma naqsh elementlarini yarim yumaloq shaklda ishlov beriladigan pardoz turi. Lo'la pardozda berilgan o'ymaning chuqurligi kamayadi va naqsh mayin ko'rinishga ega bo'ladi.

4.Tabaqa pardoz — tabaqa arabcha qatlam, daraja degan ma'noni beradi. Bunda o'yilayotgan elementlar ikki yoki uch qatlam qilib o'yiladi. Tabaqa pardoz pardoz turlarining ichida eng murakkabi hisoblanadi, shuning uchun ham bunday pardoz beriladigan naqsh kompozitsiyasi ham murakkab bo'ladi. Chunonchi, bunda tanob ko'rsatilmoqchi bo'lsa, u tabaqa darajasiga qarab, to'rt yoki oltita chiziq orqali chiziladi.

Pardoz turlarini ko'rinishi



2.4. Kompozitsiya turlari, naqsh chizishning asosiy qoidalari.

Har bir ganch o'ymakor kompozitsiya chizishning asosiy qoidalarini bilib, uni naqsh chizishda qo'llay bilishi kerak. Bu qoidalar naqqoshning dasturulamaliga aylanishi va uni hech qachon yoddan chiqarmasligi lozim bo'ladi. Naqsh turlarining qaysi biri bo'lishidan qat'iy nazar, xoh zanjira, ruta, girix, namoyon, turunj, sharafa, munabbat naqshlar bo'lsmasin quyidagi qoidalarga amal qilish katta ahamiyatga ega:

1. Tanob yoki novda tagidan gul, g'uncha, bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas.
2. Tanob bilan novdani farqlab tasvirlanadi.
3. Taqsimda ortiqcha nusxa chizib qo'ymaslik kerak.
4. Tanobdan hech qachon gul, novda, g'uncha va boshqa elementlar o'sib chiqmasligi kerak.
5. Naqsh elementining nisbati saqlanadi.
6. Ganch o'ymaga moslab naqsh kompozitsiyasi tuziladi.
7. Naqsh zichligiga e'tibor berish kerak.
8. Naqshlar orasidagi zamin bo'shliqlar nisbatini saqlash lozim.

Endi yuqorida aytilgan qoidalarni birma-bir o'rganib chiqsak. Tanob tagidan gul, barg, g'unchani qoldirib tasvirlash mumkin emas. Bu so'zlarni mantiqan o'ylab ko'raylik, tanob — bu daryoning stillashtirib olingan tasviri degan edik, u naqshga asosiy shakl beruvchi negiz. Shunday ekan, tanob tagidan gul, g'uncha, bargni

tasvirlash mantiqan to'g'ri kelmaydi. Tanobning o'lchami va shakli qanday bo'lishi kerak degan savolga kelsak, tanobning shakli naqsh turiga va naqsh bilan to'ldiriladigan yuzaning shakliga bog'liq bo'ladi. Tanobning o'lchami esa tushiriladigan naqshning mayda yirikligiga bog'liq bo'lib, tanob bilan novdani farqlab tasvirlash kerak. Tanob to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ldik, novda esa o'z-o'zidan ma'lumki, undan barg, kurtak, g'uncha yoki gul o'sib chiqadi. Bundan kelib chiqadiki, novda tanobga nisbatan ingichkaroq bo'lib, uning o'lchamlari gul, barg, g'unchalar o'lchamlariga nisbatan aniqlanadi. Taqtsimda ortiqcha nusxa chizib qo'ymaslik kerak, dedik. Endi «ortiqcha» degan so'zning falsafiy ma'nosi ustida fikrlashaylik (chunki buni bilishning hayotda ham o'rni beqiyos). Ortiqcha degan so'z zarur bo'lgan narsadan ko'p, kerak emas qismi. Haqiqatan ham deyarli hamma narsaning ortiqchasi faqatgina «ortiqcha» emas, balki zarur ham ekan. O'ylab ko'raylik, inson keragidan ortiqcha ovqat tanovul qilsa yoki nafas olishda keragidan ortiq nafas olsa nima bo'ladi? Ortiqcha kamtarlik — manmanlik deyiladi, ortiqcha qiziqchilik — bachkanalik, ortiqcha pardo — maynavozchilik deb xalqimiz bejiz aytmagan. Hattoki mol-dunyoning ham ortiqchasi zarardir. Shu o'rinda Shekspir asari qahramonlaridan biri dorifurushdan zahar sotib olganda, sotuvchi bilan oluvchining o'rtasidagi «sen menga emas, men senga zahar berdim» degan manologni eslash joizdir. Bunda asar qahramoni zahar deb oltinni nazarda tutgan. Agar kishida ortiqcha oltinchi barmoq bo'lsa, uni oldirib tashlasa, joni og'riydi, oldirmasa nuqson bo'lib qoladi. Demak, asar qahramoni ortiqcha narsalarning hammasi ham foyda keltirmas ekan, hatto zararli ham ekan. Kompozitsiyada ham falsafada bo'lgani kabi ortiqcha nusxa chizib qo'ymaslik kerak, chunki kompozitsiya ham o'ziga xos falsafa hisoblanadi.

Agar kompozitsiyada ortiqcha element chizib qo'yilsa, buning shu yeri nuqson bo'lib, shu yeri ko'zga yaqqol tashlanadi.

Naqsh elementlarining nisbatlarini saqlash kerak. Bu xususda so'z yuritishdan oldin nisbatlar to'g'risida so'z yuritaylik. Nisbatning tabiiy fanlardagi o'rni beqiyosdir. Masalan, nisbiy harakat, nisbiylik prinsipi, nisbat, xususiy va umumiy nisbiylik nazariyasi kabi fanning fundamental nazariyalari shu oddiygina ikki narsani bir-biriga nisbatan solishtirib, olamshumul kashfiyotlar qilingan. Endi

nisbatning hayotdagi va falsafadagi o'rinlari haqida gapirsak, hayotda kishi har doim nisbatni to'g'ri olib borishi kerak. Shuning uchun ham dono xalqimiz «birni ko'rib, zikr qil, mingni ko'rib, shukur qil», — deb bejiz aytmagan. Buning ma'nosi shundaki, kishi o'zini boshqalarga nisbatan solishtirib, agar moddiy va ma'naviy ahvoli undan yomon bo'lsa, hasad qilmay, sabr qilishi kerak va boshqa o'zidan ahvoli yomon bo'lgan minglarni ko'rib, shukur qilmog'i kerak bo'ladi. Tabiatdagi nisbiylik to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak, bunda ham qat'iy amal qilinadi. Masalan, anor daraxti shoxlarida qovoq bargini ko'z oldingizga keltiring yoki olma daraxti shoxlarida tarvuzdek mevani ko'z oldingizga keltiring, bularning hammasi nisbat buzilganidan darak beradi. Demak, nisbatni saqlash tabiatning qonuni ekan. Kompozitsiyada ham nisbatni saqlash asosiy mezonlardan ekan. Naqsh elementlaridan tanob, novda, gul, g'uncha va barglarning bir-biriga nisbatan o'lchamlarini mos qilib tanlab olish kerak. Agar kompozitsiyaning qaysi joyida bu nisbat buzilsa, ganch o'yilishi qanchalik nafis chiqmasin, baribir shu yer ko'zga yaqqol tashlanib, nuqson bo'lib ko'rinadi. Masalan, olomon ichida bir kishining bo'yi 230 sm bo'lsa, shu olomondan ko'zga faqat shu kishi birinchi bo'lib ko'rinadi. Namoyon naqshning bir bargi boshqalariga nisbatan katta bo'lib qolgan bo'lsa, naqshga qaralganda faqat shu bargi ko'zga yaqqol tashlanib, kompozitsiyani nuqsonli ko'rsatadi. Ganch o'ymaga moslab naqsh kompozitsiyasini tuzish kerak dedik, bu nima degani? Bu to'g'risida so'z yuritishdan oldin yuqorida aytib o'tilgan naqsh komponovkasi degan tushunchani yodda saqlash kerak, ganch o'ymakor har bir kompozitsiya qaysi yuzaga mo'ljallanganini, yuzadagi boshqa naqshlar turlari, ularning o'lchamlari qanday ekanligini hisobga olishi kerak. Buning ahamiyati juda katta bo'lib, xonaning umumiy ko'rinishi qanday chiqishi shu masalaga bog'liq. Masalan, bir o'lchamdagi naqsh kompozitsiyasi ikki xonaga har doim ham mos kelavermaydi. Chunki naqsh o'lchami to'g'ri kelgani bilan naqsh elementlarining o'lchamlari to'g'ri kelmaydi. Katta xonaga katta elementlardan tuzilgan, kichik xonaga kichik elementlardan tuzilgan kompozitsiya mos keladi. Shuning uchun ham ganch o'ymaga, ya'ni qaysi, qanday o'lchamdagi yuzasiga qarab naqsh kompozitsiyasi tuzilishi kerak bo'ladi.

Naqsh zichligiga e'tibor berish kerak dedik, naqsh kompozitsiyasi tuzishda yuzaning hamma qismida naqshlar bir tekis taqsimlanishi kerak. Yuzaning bir qismida naqshlar zich, ikkinchi qismida siyrak bo'lib joylashsa, kompozitsiyaning umumiy ko'rinishi buziladi va dalada ekilgan ekinni suv olib ketgan yoki yagana qilinmay qolgan joylarga o'xshaydi. Naqsh zichligi kompozitsiya o'lchami va xonaning katta kichikligiga bog'liq bo'ladi. Agar yuza yoki xona kichik bo'lsa, naqshlar zichroq, ya'ni maydaroq, yuza yoki xona katta bo'lsa, naqshlar siyrakroq, ya'ni yirikroq qilib chizilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida aytilgan qoidalarni har bir ganch o'ymakor ustasi sinchiklab o'rganib, unga doimo amal qilishi kerak. Agar bu qoidalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, ular o'z-o'zidan paydo bo'lmay, balki asrlar davomida sayqallanib, to'ldirilib, takomillashib borgan. Bu qoidalar asosan tabiatning o'zidan olingan bo'lib, unga amal qilinmay tayyorlangan kompozitsiya bir ko'rishda chiroyli ko'rinsa ham, vaqt o'tgandan so'ng (chunki vaqt eng oliy hakam) u o'z chiroyini yo'qotadi. Bunga misol qilib necha asrlardan buyon insoniyat aql-zakovatini lol qoldirib kelayotgan ota-bobolarimizdan qolgan tarixiy obidalarining bezaklarini keltirish mumkin. Tabiat qonuni barcha zamon va makonda o'zgarmas bo'lib qolaveradi.

Naqsh namunalarini chizish.

Har bir naqsh yuqoridagi qoidalar asosida tuziladi va chiziladi. Naqshlarning o'ziga xos nomlari va ma'nolari bo'ladi. Har bir naqsh va uning elementini azaldan ota-bobolarimiz biror narsa va voqelikning ramzi tariqasida tasvirlab kelganlar. Har qanday naqsh oddiy yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar, oddiy elementlarni ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirish natijasida hosil bo'ladi. Ganch o'ymakorligida chiziladigan kompozitsiyalarning alifbosi 10 ta naqsh gullari hisoblanadi. Har bir ganch o'ymakorligini puxta o'rganmoqchi bo'lgan o'quvchi ishni shu 10 ta naqsh gullarini chizishdan boshlashi kerak. Bu naqshlarni 6—8 martadan takror-takror chizish kerak bo'ladi.

Masalan, 1-«Guli bodom» naqshini olaylik. U bodomning ma'lum masofada ritmik takrorlanishidan hosil bo'ladi. Ya'ni naqshning asosini bodom tashkil qiladi. Shuning uchun ustalar bu naqshni «Guli bodom» deb ataydilar.

Endi biz naqsh namunalarini qora qalamda chizishning qonun-qoidolari va bosqichlari bilan tanishib chiqamiz. Keling, yuqorida aytib o'tilgan o'nta gulni qalamda chizishni mashq qilamiz.

Bu mashqlarni bajarish uchun katak daftar yoki albom, o'rta yumshoqlikdagi qora qalam, chizg'ich kerak bo'ladi. Rasm daftarga naqshlarni to'g'ri komponovka qilish, qalamni yengil, bosmasdan chizish kerak.

1-«Guli bodom»ni qalamda rasm daftarga quyidagi bosqichda chizib boramiz. Chizishda ritm va simmetriyaga rioya qilishni unutmang.

1-bosqich. Ikki parallel chiziq chizib, ularning oralig'ini teng bo'laklarga bo'linadi. Kvadratlarga diagonal chiziqlar o'tkaziladi. Bularning hammasi ingichka chiziqlar asosida bajariladi.

2-bosqich. Ikki kvadrat oralig'iga yarim aylana chizib chiqiladi.

3-bosqich. Yuqorida chizilgan yarim aylanalarni teskari holatda quyidagi rasmda ko'rsatilganidek qilib chiziladi.

4-bosqich. Ikkala bodomning pastida va yuqorisidan kurtaklar chiqariladi.

Xuddi shu singari bosqichlar asosida qolgan 9 ta naqsh gullarini rasimga qarab chizib oling. Har bir naqshni puxta o'rganib olish uchun uni 5—7 marta takror-takror chizib, mashq qiling. Naqsh gullar chizishni shunday o'rganingki, ularni yoddan chiza oladigan bo'ling. Bu mashqlarni bajarishda chiziqlarning ravon, nafis va chiroyli chiqishiga e'tibor bering.

Har bir ganch o'ymakorligini puxta o'rganmoqchi bo'lgan o'quvchi shu 10 ta naqsh gullarini chizishdan boshlashi kerak. Bu naqshlarni 6—8 martadan takror-takror chizish kerak bo'ladi.

Zanjira naqsh kompozitsiyasi

Zanjira — kompozitsiyada asosiy naqsh bilan rutani bog'lab turadigan ingichka hoshiya naqsh. Zanjiraning eni 1—8 sm atrofida bo'ladi. Zanjira oddiy shaklning takrorlanishidan hosil bo'ladigan zanjirsimon naqsh. Zanjiraning quydagi turlari bor: **zanjrai raftor** — raftorsimon zanjira naqsh, **islimiy zanjira** — o'simliksimon naqsh elementlaridan tashkil topgan ensiz hoshiya naqsh, **aylanma zanjira** — aylana shaklidagi naqsh, **ari zanjira** — ari ini shakliga o'xshagan zanjira, **gul zanjira** — gul shaklida ishlangan zanjira, **jingalak zanjira** — jingalak shaklidagi

zanjirsimon naqsh, **lola zanjira** — lola shaklidan tashkil topgan hoshiya naqsh, qo'sh lola zanjira — lola shaklidagi ikki qator zanjira, **g'ishtin zanjira** va boshqa turlarga bo'linadi.

Zanjira kompozitsiyasini tuzishda uning turi va enining o'lchami zanjiraning qayerga ishlatilishi, asosiy va ruta naqsh turlari hamda ularning o'lchamlariga bog'liq bo'ladi. Agar asosiy naqsh yirik geometrik naqsh bo'lsa, unda zanjirani kengroq olib, ari yoki g'ishtin zanjira tanlash ma'qul bo'ladi. Zanjira o'ymalarning chetiga qo'llanishda juda yirik olinsa, unda o'ymani ko'rimsiz, agar juda mayda olinsa, unda zanjira oddiy chiziqqa o'xshab ko'rinishi mumkin. Shuning uchun zanjira tanlashda yanglishmaslik kerak.

Zanjira kompozitsiyalarni tuzishda taqsimda ortiqcha nusxalarni chizib qo'ymaslikka e'tibor berish lozim. Naqsh elementlarining nisbatini saqlash kerak bo'ladi. Ganch o'ymaga qarab kompozitsiya tuziladi. Bunda naqsh zichligiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Naqshlar orasidagi zamin bo'shliqlar nisbatini saqlash lozim.

Zanjira kompozitsiyalarini tuzishda o'quvchilar faqat tekis sirtlarga emas, balki qabariq sirtlarga ham kompozitsiya tuzishni o'rganishlari kerak bo'ladi. Buning uchun ular kompozitsiya tuziladigan yuzaning shaklini to'g'ri topishlari kerak. Quyida zanjira naqsh kompozitsiyasini chizish va o'yish uchun namanalar keltiramiz.

Hoshiya naqsh kompozitsiyasi va uning turlari.

Ruta — ikki tomonga ulanuvchi naqsh taqsimoti bo'lib, hoshiya naqsh turiga kiradi. Uning o'lchamlari 14—20 sm atrofida bo'ladi. Hoshiya naqsh har xil bo'lib, uning mehrob, lo'la, hoshiya, ishkombacha va boshqa turlari bor. Ruta o'lchamlarini to'g'ri aniqlash ruta kompozitsiyasining yuzada chiroyli ko'rinishida ahamiyati juda katta. Rutaning eni yoki yupqaligi deraza va eshikning o'lchamlariga bog'liq bo'lib, enli bo'lsa yirikroq, ensiz rutaga esa nafisroq islamiy girixlardan foydalanish mumkin. Naqshning qanday xiliga qarab, ketma-ket yoki to'nkarma usullarda ulanadi. To'nkarma takrorlanuvchi ruta kompozitsiyasi chizishda qog'ozni ikkiga buklab chiziladi. Bunda kompozitsiyaning qoidalaridan **ritmga** e'tibor berish kerak.

Ruta kompozitsiyalarni tuzishda tanob yoki novda tagidan gul, g'uncha, bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas. Tanob bilan novdani farqlab tasvirlash kerak.

Taqsimda ortiqcha nusxalarni chizib qo'ymaslikka e'tibor berish lozim. Naqsh elementlarining nisbatini saqlash kerak bo'ladi. Ganch o'ymaga qarab kompozitsiya tuziladi. Bunda naqsh zichligiga e'tibor berish kerak. Naqshlar orasidagi zamin bo'shliqlar nisbatini saqlash shart.

Ruta naqsh kompozitsiyalarini ham tekis sirtga emas, qabariq sirtga kompozitsiya tuzishni ko'proq mashq qilish kerak. Bunda har bir o'quvchi o'zi izlanishi va ijod qilib, turli xil shakllar topishi va unga kompozitsiya chizishi lozim bo'ladi.

Aylana naqsh kompozitsiyasi

Aylana naqsh — bu aylana ichiga chizilgan naqsh kompozitsiyasi bo'lib, bu naqsh ko'pincha shiftning markaziga yoki devorga ham mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Aylana naqshlar o'simliksimon, geometrik, o'simliksimon-geometrik (gulli girix) va boshqa naqsh turlaridan tashkil topadi. Aylana naqsh kompozitsiyasini chizish uchun naqsh tushiriladigan yuza rejalani olinadi. Bunda naqsh yuzaning o'rtasiga tushishiga, ya'ni komponovkaga e'tibor berish kerak. Shu usul bilan aylanma naqshning diametri aniqlanadi. Endi naqsh turini aniqlash uchun xonaning boshqa qismiga tushiriladigan naqsh turlarini ham hisobga olish kerak. Naqsh elementlari o'lchamlarini aniqlashda esa, xonaning balandligi, aylana diametri, atrofdagi naqshlarning tur- lari, ularning elementlari katta-kichikligini hisobga olib aniqlash kerak. Aylana kompozitsiyasini chizishda aylananing to'rtidan bir, oltidan bir, sakkizdan bir, o'n ikkidan bir yoki o'n oltidan bir qismiga naqsh kompozitsiyasining bo'lagi chizib olinadi, keyin xitoy qog'ozini bir necha radiusi bo'yicha ninada teshib, axta tayyorlab olinadi.


Aylana nashq kompozitsiyalarni tuzishda tanob yoki novda tagidan gul, g'uncha, bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas. Tanob bilan novdani farqlab tasvirlash kerak. Taqsimda ortiqcha nusxalarni chizib qo'ymaslikka e'tibor berish shart. Naqsh element- larining nisbatini saqlash kerak. Ganch o'ymaga qarab kompozitsiya tuziladi. Bunda naqsh zichligiga e'tibor berish, naqshlar orasidagi zamin bo'shliqlar nisbatini saqlash kerak bo'ladi.

Turunj va uning turlari.

Turunj naqsh kompozitsiyasi. Turunj — arabcha «limon» degan ma'noni bildiradi. Naqshlarda kompozitsiyaning markaziga chiziladigan naqsh turi. O'rta

Osiyoda o'ziga xos ko'rinishga va mazmunga ega bo'lib, qadimdan ishlatilib kelinadi. Turunj naqshning ko'rinishi limon shaklida bo'lgani uchun uni shunday deb yuritiladi. Turunj hech qanday naqshga ulanmay muallaq turadigan kompozitsiya bo'lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan, uning hozirda doira, besh-o'n raxli yulduz, oval, romb, ellips shakllari bor. Ganch o'ymakorligida turunj asosan devor yoki ship yuzasining markaziga joylashtiriladi. To'rtburchakli kompozitsiyaning chetiga oddiy naqsh, ya'ni ruta ishlab, o'rtasiga turunj ishlanadi. Turunj naqsh kompozitsiyasi tuzish uchun, birinchi navbatda, turunj shaklini va uning o'lchamlarini aniqlash kerak. Buning uchun xonaning katta-kichikligi va baland-pastligini hisobga olish lozim. Xona qanchalik katta va baland bo'lsa, turunj o'lchamini ham shunchalik katta olish mumkin. Agar xona kichik va past bo'lsa, unga kichikroq o'lchamdagi turunj naqshlarni chizish kerak. Turunj naqsh kompozitsiyasining o'lchami va shakli ma'lum bo'lgandan so'ng uning turlarini aniqlash kerak. Turunjning quyidagi turlari bor: *geometrik naqsh*, *o'simliksimon turunj naqsh*, *o'simliksimon-geometrik turunj naqsh* va *ramziy naqsh kompozitsiyalar bo'lishi mumkin*. Bu naqsh turlarining qaysi birini chizish pardozi berilayotgan yuzadagi boshqa naqsh turlariga bog'liq bo'ladi.

Turunj, ya'ni oval shaklini katta yuzalarga tushirishning quyidagi oson usuli bor. Buning uchun oval tushiriladigan yuzaning markazidan bo'ylamasiga qarab to'g'ri chiziq o'tkazamiz. Bu to'g'ri chiziq ustida ikkita eksentrik A va B nuqtani topib olamiz. Bu nuqtalar bir-biriga qanchalik yaqin bo'lsa, chizilayotgan oval shakli shunchalik aylanaga yaqin bo'ladi, agar nuqtalar bir-biridan qanchalik uzoq bo'lsa, oval shakli shunchalik cho'zinchoq bo'lib chiqadi. Reja ipdan ikki uchini bog'lab, sirtmoq tayyorlab olamiz. Bu reja ipi A va B nuqtalar orasidagi masofadan katta bo'lishi kerak. Reja ipni A va B nuqtalar atrofidan o'tkazib, qalam yordamida reja ipni tortib turib yuzaga chiziq chizib chiqamiz:



Turunj shakli, o'lchami va naqsh turi aniqlangach, naqsh elementlari qanday o'lchamda bo'lishi aniqlanadi. Turunj naqsh kompozitsiyalarni tuzishda tanob yoki novda tagidan gul, g'uncha, bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas. Tanob bilan novdani farqlab tasvirlash kerak. Taqsimda ortiqcha nusxalarni chizib qo'ymaslikka e'tibor berish kerak. Naqsh elementlarining nisbatini saqlash kerak bo'ladi. Ganch o'ymaga qarab kompozitsiya tuziladi. Bunda naqsh zichligiga e'tibor berish, naqshlar orasidagi zamin bo'shliqlar nisbatini saqlash kerak bo'ladi.

Namoyon va uning turlari.

Namoyon naqsh kompozitsiyalari. Namoyon — forsha so'z bo'lib, ko'rinish, manzara ma'nosini bildiradi. U eng mukammallashgan yetuk naqsh kompozitsiyasi bo'lib, voqelikning umumlashtirilgan tasviriy obrazini o'zida aks ettiradi. Namoyon murakkab naqsh turiga kirib, hech qayoqqa ulanmaydigan mustaqil kompozitsiya. Uning o'simliksimon, geometrik, gulli girix, ramziy va boshqa turlari bor. Ramziy namoyonda ganch o'ymakori turli mavzularda kompozitsiya tayyorlashi va turli ramziy tasvirlardan foydalanishi mumkin. Masalan, xumo qushi, yulduz, kabutar, gerb, har xil ko'rinishlar va boshqalarni ifodalovchi naqsh elementlaridan foydalanishi mumkin. Namoyon naqsh kompozitsiyasini tuzishda ham, uning o'lchami va shakli aniqlab olinadi. Naqsh o'lchami va shakli pardoiz beriladigan xonaning o'lchamlariga, nima maqsadda foydalanilishiga, atroflariga beriladigan pardoizlarning turlari va shakliga bog'liq bo'ladi. Namoyon naqshlarning mavzusini

tanlashda o'sha joyning turiga qarab ramziy namoyon ishlash mumkin. Namoyon naqsh kompozitsiyalarni tuzishda tanob yoki novda tagidan gul, g'uncha, bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas. Tanob bilan novdani farqlab tasvirlash kerak. Taqsimda ortiqcha nusxalarni chizib qo'ymaslikka e'tibor berish lozim. Naqsh elementlarining nisbatini saqlash zarur. Ganch o'ymaga qarab kompozitsiya tuziladi. Bunda naqsh zichligiga e'tibor berish, naqshlar orasidagi zamin bo'shliqlar nisbatini saqlash kerak bo'ladi.

Namoyon naqsh kompozitsiyalarini yaratishda ilgari chizilgan kompozitsiyalardan ham foydalanib, yangi kompozitsiya yaratish mumkin. Usta Usmon Ikromov tomonidan yaratilgan mehrobli namoyonni uning o'g'li usta Mahmud Usmonov to'rtburchakli qilib qaytadan ishlagan. Buning uchun asl nusxani ma'lum yeridan kesib, yoniga ozgina qo'shib, to'rt marta takrorlash bilan yangi namoyonga aylantirg

Munabbat naqsh turlari.

Munabbat naqshlar. Erkin islmiy naqsh, ya'ni to'rt tomonga takrorlanadigan naqsh turi. Munabbat naqsh kerakli yuzani naqsh bilan to'ldirib chiqish uchun ishlatiladi. Munabbat naqsh uch xil ko'rinishda bo'ladi:

1. Har tomonga cheksiz takrorlanadigan munabbat naqsh.
2. Kompozitsiyasi tugallangan munabbat naqsh, ya'ni ma'lum bir yuzaga mo'ljallangan naqsh.
3. Munabbat aylana yoki turunj ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Har bir naqsh turida bo'lgani kabi munabbat naqsh kompozitsiyasini tuzishda ham, yuqorida aytilgan qoida asosida, naqsh tushiriladigan yuza sathi aniqlanadi. Shundan so'ng munabbat naqsh turi atrofdagi naqsh turlariga mos qilib tanlab olinadi. Tanlab olingan yuza va naqsh turiga qarab naqsh elementlarining o'lchamlari tanlab olinadi. Munabbat kompozitsiyalarni tuzishda tanob yoki novda tagidan gul, g'uncha, bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas. Tanob bilan novdani farqlab tasvirlash kerak. Taqsimda ortiqcha nusxalarni chizib qo'ymaslikka e'tibor berish lozim. Naqsh elementlarining nisbatini saqlash zarur. Ganch o'ymaga qarab


kompozitsiya tuziladi. Bunda naqsh zichligiga e'ti- bor berish, naqshlar orasidagi zamin bo'shliqlar nisbatini saqlash kerak bo'ladi.

Geometrik naqshlar va ularning turlari.

Geometrik naqsh. Turli xil, bir-birini kesib o'tgan behisob chiziqlar, har xil burchakli va qirrali yulduzlardan tashkil topgan geometrik naqshni **girix** deb yuritiladi. Girix — forscha chigal, tugun degan ma'noni bildiradi. Murakkab naqsh turi. U muayyan taqsimlarga va har bir taqsim o'z tuzilishiga ega. Geometrik naqsh elementlari to'rt qismdan — uchburchaklar, to'rtburchaklar, ko'pburchaklar va egri chiziqlardan tashkil topadi. Shu girix elementlarini o'zaro solishtirib joylashtirish orqali minglab naqshlar yasash mumkin. Taqsimlarning takrorlanishidan tugal naqsh kompozitsiyasi hosil qilinadi. Geometrik naqsh kompozitsiyasini tuzishning o'ziga xos mushkul tomonlari mavjud. Buning uchun matematika va geometriya fanlarini yaxshi bilish talab qilinadi. Quyida yangi girix kompozitsiyalari tuzishning ba'zi usullarini havola etamiz.

1. Girix elementlarini o'zaro siljitib, naqsh kompozitsiyasi hosil qilish.

- a) to'rtburchaklarni o'zaro siljitib, naqsh kompozitsiyasi hosil qilish;
- b) uchburchaklarni o'zaro siljitib, naqsh kompozitsiyasi hosil qilish;



- d) muntazam ko'pburchaklarni siljitish asosida kompozitsiya hosil qilish;
- e) egri chiziqlarni o'zaro joylashtirib kompozitsiya hosil qilish.

2. Girix elementlarining ba'zi tomonlarini davom ettirish yo'li bilan kompozitsiya hosil qilish.

3. Kompozitsiyaga ba'zi elementlar qo'shish yo'li bilan yangi kompozitsiya hosil qilish.

4. Kompozitsiyadagi naqsh elementlarining ba'zi tomonlarini o'zgartirish yo'li bilan yangi kompozitsiya hosil qilish.

5. Ikki xil girix elementlarini biriktirib, yangi kompozitsiya hosil qilish.

6. Ba'zi girix kompozitsiyasidagi ayrim bo'laklarni olib tashlash yo'li bilan yangi kompozitsiya hosil qilish.

7. Girix kompozitsiyalarini bir necha mustaqil kompozitsiyalarga ajratish orqali yangi kompozitsiya hosil qilish mumkin.

Girix naqsh kompozitsiyalarni tuzishda tanob yoki novda tagidan gul, g'uncha, bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas. Tanob bilan novdani farqlab tasvirlash kerak. Taqsimda ortiqcha nusxalarni chizib qo'ymaslikka e'tibor berish lozim. Naqsh elementlarining nisbatini saqlash zarur. Ganch o'ymaga qarab kompozitsiya tuziladi. Bunda naqsh zichligiga e'tibor berish va naqshlar orasidagi zamin bo'shliqlar nisbatini saqlash kerak bo'ladi.

Toshkentdagi O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi binosi devoriga ishlangan naqsh chizmalari



Toshoyna yuzasiga ganch o'ymakorligi uchun kompozitsiyalarni loyihalash.

Ganch o'ymakorligining bu turi XIX asrda vujudga kelib, uni birinchi bo'lib buxorolik ganch o'ymakor usta Usta Shirin Murodov qo'llagan. Uning oynakorlikdagi eng ajoyib ishlaridan biri Sitorayi Mohi-Xosadagi Oq zal (xonayi safed)dir.

Unda hech qayerda qo'llanilmagan toshoyna ustida ganch o'ymakorligi birinchi bo'lib qo'llandi. Xona oppoq o'yma ganch bilan qoplangan bo'lib, toshoynada tashqaridagi manzara va atrofdagi mayin ganch o'ymakorligi aksi tasvirlanib, xonani yanada keng, jozibador, o'ziga xos ko'rinish hosil qiladi.

1947-yili Usta Shirin Murodov Alisher Navoiy nomli opera va balet katta teatrining Buxoro mehmonxonasi zalida toshoyna ustida yanada ajoyib ganch o'ymakorligini bajargan. Keyinchalik esa toshoyna ustiga ganch o'ymakorlik bajarish keng tarqaldi. Hozir ustalar bu ganch o'ymakorlik turini keng qo'llab, davom ettirib kelmoqdalar. Bunga misol qilib Markaziy univermagning sovg'alar bo'limini, Yakkasaroy tumani «Baxt uyi» va boshqa joylarda toshoyna ustiga bajarilgan ajoyib namunalarni ko'rsatish mumkin.

Toshoyna ustiga ganch kompozitsiyalarini tuzish uchun birinchi bo'lib, uning shakli va o'lchamlari belgilab olinadi. Uning shakli va o'lchamlari xona devorlarining o'lchamlariga bog'liq bo'ladi, xona qanchalik katta bo'lsa, toshoyna ustiga o'yiladigan ganch kompozitsiyasi shunchalik katta bo'ladi. Uning shakllarini esa har bir ijodkor-ganch o'ymakor o'zi belgilashi mumkin.

Toshoynaga o'yma bajarishdan avval yuzaga moslab naqsh kompozitsiya chizishning o'ziga xos tomonini belgilab, naqsh elementlarini bir-biriga tegib turadigan qilib chizish kerak. Chunki, naqsh kompozitsiyada gulning bandlari va elementlari bir-biriga tegib turmasa, o'yish jarayonida sinib ketishi mumkin. Naqsh chetiga oddiy yakka zanjira chizilsa, kompozitsiyaning yanada chiroyli chiqishiga yordam beradi.

Toshoyna ustiga ganch o'yma kompozitsiyalarni tuzishda tanob yoki novda tagidan gul, g'uncha, bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas. Tanob bilan novdani farqlab tasvirlash kerak. Taqsimda ortiqcha nusxalarni chizib qo'ymaslikka e'tibor berish zarur. Naqsh elementlarining nisbatini saqlash lozim. Ganch o'ymaga qarab kompozitsiya tuziladi. Bunda naqsh zichligiga e'tibor berish va naqshlar orasidagi zamin bo'shliqlar nisbatini saqlash kerak bo'ladi.

2.5. Intererda ishlatiladigan bezaklardan tokchalarni yasash texnologiyasi.

Ganch o'ymakorligi san'atining qadimgi, o'rta asrlar va XX asrdagi rivoji bir-biridan ancha farq qiladi. Qadimgi ganch o'ymakorligi hajmli bo'lib, unda realistik tasvir ustunlik qiladi. Ularda, ko'pincha, odamlar, hayvonlar, qushlar tasvirl bajarilgan. Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchning ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, qal'a, karvonsaroy va uy joylarni ganch bilan badiiy bezay boshlaganlar. Natijada ganch o'ymakorligida turli uslublar, yo'nalishlar va ayni paytda maktablar shakillangan. Bu maktablar bezatiladigan uy joylarni taqsimoti, naqsh turlari va pardozi bilan bir biridan ajralib turgan.

Intererni bezashda ustolar uyning doimiy yashaydigan yoki mehmon xona ekanligiga qarab devorlarni ma'lum bo'laklarga bo'lib, ganch o'ymakorligi va naqqoshlikda islmiy geometrik naqshlardan foydalanib bezaganlar.

Uy devorlarini ma'lum bo'laklarga bo'lingandagi nomlari;

Sharafa - *(uyning devor va ship qismi tutashgan burchakdagi bezak (karniz)*

Tokchalar - *(uy to'ridagi turli idishlar saqlanadigan joy, tokchabandi deb ham ataladi)*

Ravoqlar - *(ko'rpa to'shaklarhi terib qo'yadigan joy, ravoq dahana deb ham ataladi)*

Namoyon - *(devordagi asosiy bezaklar beriladigan ko'rinish joyi)*

Ruta - *(ikki tomonidan bir xil bog'lanadigan yo'l ichidagi naqsh)*

Kitoba - *(ravoqlar va tokchalarni ustiga hikmatli so'zlar yoziladigan joy)*

Lali - *(turli shirinliklar, idishlar saqlanadigan joy)*

Izora - *(uyning pastki qismi, panel)*

Sanduqi - *(sandiqa saqlanadigan joy)*




Tokchalar asosan uyning to'ridagi devorga yasalib, kundalik turmushdagi ishlatiladigan idishlarni va dekorativ yodgorlik buyumlarini chiroyli tarzda terib saqlash uchun foydalanilgan. Intererning asosiy buymlaridan hozirgi zamonaviy yog'ochdan yasalgan mebellar ya'ni (stenka va servantlarni) o'rnini bosgan.



Tokchalarni yasash texnologiyasi.

Uyning to'ridagi devorni o'lchamlari inobatga olinib, eni uchga bo'linadi. Shu o'lchamlarga asoslanib masshtabda izlanish eskizlari bajariladi.

Eskizlar puxta qilib oxirga etkazilib tayyorlangandan so'ng, avvalo tokchanning tagi tez ganch qorishmasida tekislanib chiqiladi. Tayyor bo'lgan devorga aniq o'lchamdagi tokchanning shakli chizib chiqiladi. Tokchani terish uchun shisha (oyna) ustida 1sm dan 1.5 sm gacha qalinlikda ganch taxta quyiladi. Ganch taxta o'lchamiga qarab kesib mayyorlab olinadi va ketma-ket tez ganch yordamida terib chiqiladi.



Tokchalarni terishning asosiy talablari;

- a) tayyor ganch taxtalar gorizontaal va vertikal holatda teriladi*
- b) yuk ko'taradigan gorizontaal ganch taxta vertikal ganch taxta ustiga mindirilishi shart.*

v) *ganch taxtani tez ganch qorishmasi yordamida birlashtirish kerak. Shu qoidalarga rioya qilish muhimdir, aks holda terilgan tokchani mustahkamligi yo'qoladi.*

Tokchani xonalari (katakchalari) tayyor bo'lgandan so'ng har bir xonasiga pardacha uchun mos 0.5 mm dan 0.7mm gacha qalinlikda shisha ustida ganch taxta quyiladi, ganch taxta kesib olinib tez ganch yordamida har bir katak yuzasiga o'rnatib chiqiladi. Yuzasini pardoqlash uchun mos qilib naqsh nusxasini (kalka) shaffof qog'ozga chizib chiqilib igna yordamida teshiladi va axta tayyorlanib tokcha yuzasiga xoka yordamida naqsh nusxasi tushurilib birma-bir pardoqlab chiqiladi.

Ramziy shakllar, naqshlar, zaminsiz o'ymali panjaralarni ko'rinishlari



Tokchani pardacha qismi uchun ishlatiladigan qo'shimcha bezaklar turli xil ramziy shakllar, naqshlar, zaminsiz o'ymali panjaralarni qo'llash mumkin. Tokchani yuz qismida turli naqshlar, shakllar, ramziy ma'nodagi tasvirlar o'yib yoki bo'yoq yordamida chizib chiqiladi.

Tokcha xonachalari tayyor bo'lgach ichki qismlari tempera yoki guash bo'yoqlaridan foydalanib to'q ranglarda bo'yaladi. Bo'yashdan maqsad har bir xonachani shakli uzoqdan aniq va chiroyli ko'rinishini ta'minlashdan iborat.

Qadimda ganch taxtalarni ustalar o'zlari quyib tokchalarni yasaganlar, hozirgi kunda zamonaviy qurilish xomashyosi bo'lgan gipsokartondan foydalanib ham tokchalar yasalmogda. Buning afzallizi shundaki ganchni qurishini kutib turmasdan ishni tezroq tugatish imkoniyati mavjud.

Tokchalarni yasalishi, murakkablik darajasi turli xil bo'lib, har biri o'ziga xos jozibadorligiga ega. Bunda tokchani terilish uslubi, tanlangan bezak va pardoz turi asosiy rol o'ynaydi.

Panjarasimon (zaminsiz) o'yma –binolar ichidagi tokchalar, deraza va tuynuklarni pardozlashda va qandillar tayyorlashda qo'llaniladi. Bu o'yma boshqa o'ymaning turlaridan farq qilib o'yilayotgan ganch taxtaning birinchi tomonidan ikkinchi tomoniga teshib o'yiladi. O'ziga xos pardoz tanlab pardozlanadi. Zaminsiz o'yma qadimdan interer va ekstererni bezash uchun muntazam qo'llab kelingan .

Qirma (joylama)– o'yilgan naqshlarni rangli ganch qorishmasi bilan to'ldirishdir. Qirma ikki turga bo'linadi, birinchisi tekis yuzali qirma, ikkinchisi rel'efli qirma.Tekis yuzali qirma - xuddi devorga grafik usulida bajarilgan naqshga o'xshab ko'rinadi. Bu pardoz turidan tokchalarni pardacha ya'ni yuza qismini bezashda ishlstiladi.

Buxoro va Samarqand ganch o'ymakorligi maktablariga mansub bo'lgan tokcha bandi uslubi ustalarimizni tabiiy xomashyo hisoblangan oddiy ganch va suvdan foydalanib shu darajadagi go'zal san'at asarlarini yaratganliklari uzbek xalqini azal-azaldan ilm - ma'rifatga, go'zallikka intilib yashaganliklaridan dalolat beradi.

2.6. Ganch o'ymakorligida ijodiy kompazitsiya bajarish texnologiyasi

Amaliy san'atni boshqa turlari kabi ganch o'ymakorligida ham oddiy ruta, to'rtburchak va doira kompozitsiyalarini tuzish, o'yish va ularga mos pardoz berishni o'rganganimizdan so'ng biz murakkabligi bilan farq qiladigan ijodiy murakkab namoyon (panno),turunj kompozitsiyallarini bajaramiz.

Namoyon — forsha «ko'rinish, manzara» degan ma'noni bildiradi. Namoyon mukammal echimga ega bo'lgan naqsh kompozitsiya. Namoyon voqelikning umumlashgan tasviriy obrazini o'zida aks ettiradi. Namoyon kompozitsiyasida, masalan, chamanzor, bog'u bo'stonlar, daryolar, gullar, barglar va boshqalar ko'proq tasvirlanadi. Namoyon chetlaridagi hoshiya namoyonning badiiy ko'rinishida muhim rol o'ynaydi. Namoyon hech nimaga ulanmaydigan mustaqil kompozitsiyadir. Uning *o'simliksimon*, *geometrik*, *gulli girih*, *ramziy* va boshqa turlari mavjud. Namoyonni ishlashda ustalar uning uzoq va yaqindan ko'rinishini ham hisobga oladilar.

Namoyon islimiy naqshdan iborat bo'lsa, uning band va tanoblari darajalarga bo'lib chiqiladi. Namoyonda girih asosiy, islimiy naqsh esa to'ldiruvchi hisoblanadi. Namoyon girihdan tashkil topgan bo'lsa, uni ham asosiy, ham to'ldiruvchi girihlarga bo'lish mumkin, ya'ni yirik girihlar ichiga mayda girihlar chiziladi.

Namoyon simmetrik va asimmetrik tuzilishiga ega bo'ladi. XIX asrning o'rtalarida har bir vohaning namoyonlari o'ziga xos bo'lib, ular bir- biridan farq qilgan. Ular xarakterli naqsh uslubiga ega. Masalan, Xiva naqqoshligidagi namoyonlarda bandlar bir-biri bilan spiralsimon ulanib ketadi. Barg, gullar kam qo'llaniladi. Ularning kompozitsiyasi dinamik xarakterga ega bo'ladi. Toshkent ustalarining namoyon kompozitsiyalari o'ziga xos bo'lib, o'simlik va gullarning ko'pligi bilan ajralib turadi.

Faig'ona namoyon naqsh kompozitsiyalarida gul, barg, meva (lola, atirgul, bodom gul, majnuntol, anor va hokazolar) va boshqalar to'g'ridan-to'g'ri tasvirlanadi. Ularning *mehrobi namoyon*, *chorsi namoyon seraftor*, *shabaki namoyon*, *majnuntol namoyon* va boshqa atamallari bor.

Amaliy ishga o'tishdan avval namoyonning mavzusini aniqlab olamiz. Chunonchi, namoyoni Samarqand, namoyoni Buxoro, islimiy namoyon, majnuntol, anor kabi mavzulardan biri tanlab olinadi. Shu mavzuga bag'ishlangan izlanish eskizlari chiziladi va ulardan eng yaxshisi tanlab olinadi.

- Shu xomaki kompozitsiyaning haqiqiy kattalikdagi rasmini chizib, uning axtasi tayyorlanadi.

- Ganch taxta tezganch va gulganch (xovonda) usuli bilan ikki qavat qilib quyilib tayyorlanadi.
- Tayyor naqsh kompozitsiyasini axta va xoka yordamida ganch taxta yzasiga tushiriladi.
- Kompozitsiya o'yib, unga tegishli pardozi turi beriladi.

Bajarish bosqichlari:

- Namoyon naqsh kompozitsiyasini chizish uchun izlanish eskizlarini bajarish;
- Mukammal ko'rinishdagi namoyon naqsh kompozitsiyasini chizish;
- Axtasini (ulgisi) tayyorlash;
- Ganch taxta quyish;
- Namoyon naqsh kompozitsiyasini axta yordamida ganch taxtaga ko'chirish;
- Naqsh zaminini o'yib chiqish;
- Naqshni kerakli pardozi tanlab pardoqlash.
- Naqshni fon qismini bo'yab chiqish.

Turunj kompozitsiyasini bajarish texnologiyasi

Kompozitsiya shakl yoki mazmun jihatdan biror bir mavzuga bag'ishlab ishlanadi. Islimiy yoki girix naqshlardan namoyon, turunj, ruta kabi kompozitsiyalarni tuzish mumkin. Birinchi bo'lib panno o'lchamiga mos naqsh eskizi bajariladi. Naqsh eskizini to'liq chizilgandan so'ng uni shaffof qog'oz (kalka) ga ko'chiriladi va axtasi (ulgisi) igna yordamida teshib tayyorlanadi. Keyingi bosqich eskizga mo'ljallab ma'lum o'lchamdagi gipsokarton kesib olinadi ramka tayyorlanadi. Ramka ichida 2 sm qalinlikda tezganch qorishmasi tayyorlanib tekis quyiladi, usti andava yoki shpatel yordamida tekislanadi. Tez ganch qotgandan so'ng uning yuzasiga xovonda qorishmasi tayyorlanib surtiladi.

Xovonda- gul o'yishga mo'ljallab bir qadar kuchi kamaytirilgan ganch qorishmasidir. Xovonda tayyorlashda avval Tezganch qotib bo'lgandan so'ng xovonda ganch qorishmasi tayyorlaymiz gul ganchni (gipsni) kerakli miqdorda elakdan o'tkaziladi. Xovonda tayyorlash uchun uch nisbatda suv, ikki nisbatda

ganch olinib suv yuzasiga sepiladi, ozgina kutamiz toki ganchimiz suvga to'yinib suv ostiga cho'kguncha keyin sanab turib 80-100 marotoba aylantirilib qorishtiriladi. Xovondani gul o'yish uchun uni necha marta aylantirishni mo'ljallashni bilib olish kerak. Ya'ni ganchni quvvatini aniqlash uchun yarim stakan suvga ganch solib 50 marta aylantirib ganch taxta qo'yib, keyin esa pichoqda o'yib ko'riladi, agar o'yishda qattiq bo'lsa, ikkinchi qorganimizda 100 marta, yana qattiq bo'lsa 120 marta, hattoki 180 marta aylantirishni ham talab qilishi mumkin. Tajribali ganch o'ymakor ustalarimiz ganchni qo'lga olib siqqanlaridayoq quvvatini aytib bera oladilar. quvvati past, sifatsiz ganchni juda ko'p aylantirib yuborsak, u ishdan chiqadi. Ya'ni ganch qotgandan so'ng salga uvalanib, sinib ketadigan mo'rt bo'lib qoladi. Ba'zi kuchli ganchlarni kam aylantirib qo'ysak tayyorlangan ganch taxtamizni pichokda o'ymay sinib ketishi ham mumkin. Tez qotib qolgan ganchni ustalarimiz tezganch deb yuritadilar. Ganch quvvatini aniqlab olgandan so'ng (gul o'yish uchun suv bilan ganchni necha marta aylantirish nisbatini) ganch taxtaga mo'ljallab xovonda tayyorlanadi.

Plastmassa chelakcha yoki sirli tog'orachaga kerakli miqdorda suv solinadi, suv sirtiga elangan ganchni o'ng ho'lda asta solinadi, chap qo'lda esa ganchni suv bilan qo'l panjalari bilan ezg'ilab aylantiriladi. Agar yaxshilab ezg'ilab aylantirilmasa ba'zi ganchlar suvda erimasdan qolib naqshhi o'yayotganimizda qiyinchilik tug'diradi. Ganchni taxminan 2-3 minut (ko'p marta) masalan, 100 marta aylantirgandan so'ng suyuqroq qaymoqqa o'xshab quyula boshlanganda ganch o'yadigan yuzaga yoki ramkaga, ya'ni qolipga quyiladi. Ganch quyishda ikkinchi kishi qolipni ushlab tursa reykalar surilib ketmaydi. Quyib bo'lgandan so'ng, ganch ustini chizg'ichga o'xshash reykada tekislanadi. quyilgan hovonda ganch qorishmasi tayyorlanib taxminan 1 sm qalinlikda quyiladi va usti tekislanadi. Naqsh namunasi ganch yuzasiga xoka yordamida tushiriladi va zamini tezganch chiqqunga qadar o'yib chiqiladi. Yuqorida aytib o'tganimiz 1-qavat tezganch, 2-qavat hovonda ganch qorishmasidan foydalanishimizdan maqsad naqsh zaminini o'yganimizda zamini bir tekisda chiqadi. Naqsh kompozitsiyasini zaminini bir tekisda o'yilgandan so'ng naqsh gul, barg, tanoblariga tabaqa pardozi berib pardozlanadi.

Ganch o`ymakorligi asosan soya va yorug`lik asosida naqsh, shakllari ko`rinadi. Buni yanada jozibadorligini oshirish maqsadida naqshni fon qismini bo`yab chiqish mumkin. Ganchni bo`yashda asosan guash, tempera, akvarel, zarhallardan va quruq kukunli pigmentlardan foydalanish mumkin. Biz ijodiy pannodagi naqshni fon qismini bo`yashda tempera bo`yog`i va zarhal (tilla rang)lardan foydalanamiz. Buning uchun bizga turli kattalikdagi mo`yqalamlar, suv va idishlar kerak bo`ladi. Ish tugagandan so`ng biz oldindan tasavvur qilgan pannodagi naqshni ma`nosi yaqqol namoyon bo`ladi. Biz bajargan turunj kompozitsiyasining afzalligi, yangiligi shundaki buni xoxlagan joyga ko`chirib o`rnatishimiz mumkin. bir so`z bilan aytganda ko`chma turunj kompozitsiyasi.

Xulosa.

Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr -intelektual boylik hukmronlik qiladigan asr.

Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa - bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar.

Buni chuqur anglab olgan davlat, bunday xulosani chiqargan, xalqaro hamjamiyat va taraqqiy topgan mamlakatlar qatorida kutarilish uchun harakat qilayotgan jamiyat, birinchi navbatda, unib – o'sib kelayotgan farzandlarning har tomonlama barkamol avlod bo'lib hayotga kirib borishini o'zi uchun eng ulug', kerak bo'lsa, eng muqaddas maqsad, deb biladi.

Islom Karimov

O'zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo'lganligi ota-bobolarimiz qurgan binolar, me'morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o'simliksimon naqshlar ularning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali o'z orzu umidlarini, muhabbatlarini xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'ati turlari ayniqsa, ganchkorlik, naqqoshlik san'atida naqsh turlari, maktablari va ularning o'ziga xos tomonlari, ishlash texnologiyasi hamda buyumlarga mos naqsh kompozitsiyalar tuzish va uni bezash usullari etarli darajada chuqur o'rganilgan deb hisoblamaymiz. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san'atini ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash, ananalarni boricha yosh avlodga etkazish va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muxim vazifalaridan biridir.

Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an'anani rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt chidam, qat'iyat, xalq amaliy san'atining qizikarli o'ziga xos turlariga daxldor etish maqsadga muvofiqdir.

Go'zallikni seza bilishga, san'at asarlarini o'rganishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, naqqoshlik san'atiga

bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, kasb tanlash, ko'nikma va dunyoqarashni shakllantirishda amaliy san'at turlari muhim rol' o'ynaydi. Ganchkorlik bu san'at, ham hunardir. U asrlar mobaynida ota-bobolarimiz tomonidan ko'z qorachigidek asrab-avaylab kelingan xalq amaliy bezak san'ati merosiy durdonasidir. Tarixda va ayni kunlarga qadar saqlab kelinayotgan bu amaliy san'at turlari kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanadi. Zero, ishlangan takrorlanmas o'yma naqshlar inson idrokining, odam his- tuyg'ularining ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda o'zbek hunarmandchiligini, bizgacha etib kelgan xonadonlardagi milliy bezak turlari ganch o'ymakorligi an'analarini ilmiy jihatdan puxta o'rganib yoshlarga o'rgatishimiz, bizning tarix va kelajak avlod oldidagi burchimiz hisoblanadi.

Atamalarning izohli lug'ati

Axta- shaffof qog'ozga naqsh chizib igna yordamida teshib tayyorlanadigan naqsh nusxasi.

Axromatik rang — grekcha — rangsiz degan ma'noni bildirib, ular bir- biridan qabul qiladigan yoki tarqatadigan yorug'lik kuchi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kulrang, qora rangdan yorug'lik kuchi bilan farq qiladi.

Anorgul — naqqoshlikda va boshqa san'at turlarida ishlatiladigan anor elementidan tashkil topgan o'simliksimon naqsh. Anorgul qadimdan ishlatilib kelinayotgan naqsh turi bo'lib, ko'pincha Farg'ona naqsh uslublarida ayniqsa ko'p ishlatiladi. Bu naqsh turi hayotdagi to'qchilik, to'kin-sochinlik ramzi sifatida ifodalanadi.

Ari zanjiri — ari ini shakliga o'xshatib o'yilgan zanjira turi. U qadim zamondan ishlatib kelinayotgan zanjira turlaridan biri bo'lib, ganchkorlikda yog'och o'ymakorligi kabi san'at turida ishlatiladi.

Asosiy ranglar — tabiatdagi sariq, qizil, zangori ranglar. Shu ranglarni bir-biriga ozmi-ko'pmi aralashtirish natijasida boshqa ikkinchi darajali ranglar kelib chiqadi.

Bodom — bodomni stillashtirib tasvirlangan o'simliksimon naqsh elementi. Bodomni baxt-iqbol ramzi tariqasida ishlatishadi.

Bayt — arab alifbosida badiiy qilib ishlangan she'riy o'yma naqsh.

Besh-sakkiz-o'n ikki raxli girix — geometrik naqsh turlaridan biri.

Bargi madoxil — barg shaklidagi madoxil turlaridan biri. Bu naqsh turi qadimdan ishlatilib kelingan bo'lib, Xalq Amaliy san'atining barcha turlarida qo'llaniladi.

Bargi xurmo — o'simliksimon naqsh turi, xurmo daraxti bargining stillashtirib olingan tasviri.

Guli chorbarg — to'rt yaproqli gul naqsh bo'lib, o'simliksimon naqsh turiga kiradi.

Gajak panjara — gajaksimon naqsh elementidan tashkil topgan panjara.

Daxana — me'morchilikda devor yoki peshtoq pilpoyasi yuzasida ajratilgan to'g'ri turtburchak hamda ravoqli shakl bo'lib, peshtoqdagi daxanalar ustma- ust o'rnashgan bo'ladi.

Yelpig'ich zanjira — yelpig'ich shaklini eslatuvchi zanjira turi.

Yordamchi tanob — naqsh kompozitsiyasidagi ikkinchi darajali chiziq.

Zanjirayi islimi yak raftor — ikki tomonga o'sib boruvchi bir bandli naqsh.

Izora — xona devorining pastki bezak qismi.

Islimi mehrob — o'simliksimon naqshlar bilan to'ldirilgan mehrob.

Islimi pargori — sirkul bilan bajarilgan islamiy naqsh turi.

Islimi duraftor — ikki yo'nalishli ruta islamiy hoshiya naqsh.

Kitoba — ganchkorlikda Qur'oni karim sura va oyatlarini o'yma ganch yoki naqshli qilib yozilgan namoyon. Yozuvli bezak.

La'li — ganch o'ymakorligida eshik tepasidagi to'rtburchak joy.

Panjara — tobadon, arxitektura detali bo'lib, binoning tuynuk, darcha va boshqa joylariga bezak sifatida ishlatiladi.

Pardacha- bu tokchaning yuz qismiidagi asosiy bezak bo'lib juda nozik qilib qo'lda pardoatlanadi.

Ruta — ikki tomonga ulanuvchi naqsh taqsimi, hoshiya naqsh.

Sirtmoq — boftaning bir turi bo'lib, uni bandi rumiy deb ham ataladi.

Tokcha — xona devoriga maxsus o'yib ishlangan joy.

Tanob tortish — naqsh kompozitsiyasining asosiy shakl beruvchi elementini chizish.

Tez ganch- tez tayyor bo'ladigan va mustahkam qotadigan ganch qorishmasi turi

Sharafa (apa6na) — karniz, muqarnas shaklidagi karniz.

Qandil — yoritqich, arxitektura detali bo'lib, xonani yanada chiroyli qilib turadi.

Xoka –dokaga bog'langan chala kuydirilgan yog'och kukuni, ganch taxta yuzasiga naqshni tushurish uchun ishlatiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. 1998 yil
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T. 1999 yil.
3. Xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, -T:"Toshkent oqshomi" oynomasi, 2-aprel,1997-yil,38-son.
4. Bulatov S.S. O'zbekiston xalq, amaliy bezak san'ati. – Toshkent, Mehnat, 1991.
- 5.Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san'at qiskacha lug'at.- Toshkent, qomuslar bosh tahririyati, 1992.
- 6.Қосимов Қ. Ганч ўймакорлиги.-Т: Ўқитувчи, 1990.
- 7.Қосимов Қ. Ганч ўймакорлиги.-Т: Ўқитувчи, 1982.
8. Bulatov S.S, Dadashev L. Naqsh alifbosi.- Toshkent, Cho'lpon, 1999.
- 9.Kosimov K., Naqqoshlik.- Toshkent, O'qituvchi, 1990.
10. Gulomov K. Ashyolarga badiiy ishlov berish.- Toshkent:«Bilim»,2004
- 11.Nabiyev M. Rangshunoslik Toshkent O`qituvchi 1995
- 12.Egamov. X Bo`yoqlar bilan ishlash Toshkent O`qituvchi 1981
13. Rempel. I. M "Panjara, Arxitekturnie reshyotki i ix postroenie". T.
- 14.Yuldashev .X. Bulatov S.S. Ustoz va shogird odobi Toshkent, Mehnat, 2004
- 15.M.Mirzaaxmedov. "Materiallarga badiiy ishlov berish". T.1986y.
- 16.N.R.Qayumov Dekorativ amaliy san'ati yo'nalishi bo'yicha loyihalash(badiiy ganch o'ymakorligi) "Sharq" T.2007y.
17. Bulatov S.S, Yo'ldoshev G'. Ashyoga badiiy ishlov berish. "Sharq" T.2007y
18. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. -T: Iqtisod-moliya, 2007.
- 19.Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. -T: Iqtisod-moliya, 2007.
- 20.G'ulomov K.M. Amaliy san`at. -T: Iqtisod-moliya, 2008.

[www. n.b.g.t. intal. uz.](http://www.n.b.g.t.intal.uz)


[Ziyonet.uz.](http://Ziyonet.uz)

www.google.uz


ILOVALAR




(2-rasm) Alisher Navoiy nomli O'zbek Davlat Akademik opera va balet teatri
Buxoro zalining naqshi usta Shirin Murodov bajargan kompozitsiya




(3-rasm) Zanjira naqsh kompozitsiyasi



(4-rasm) Oddiy zanjira naqsh kompozitsiyasi




(5-rasm) Zanjira naqsh kompozitsiyasi




(6-rasm) Aylana zanjira naqshi




(7-rasm) Aylana zanjira naqshi



(8-rasm) Zanjira naqsh kompozitsiyasi



(9-rasm) Aylana zanjira naqshi kompozitsiyasi




(10-rasm) Zanjira naqsh kompozitsiyasi



(11-rasm) Ikki tomonga ulanuvchi ruta naqshi




(12-rasm) Aylana naqsh



(13-rasm) Turunj naqsh kompozitsiyasi.



(14-rasm) Namoyon naqsh kompozitsiya



(15-rasm) Namoyon naqsh kompozitsiya



(16-rasm) Namoyon naqsh kompozitsiya



(17-rasm) Munabbat naqshi

(1
8-
rasm)
Grih






(19-rasm) Toshoyna ustida ganch o'ymakorligi



(20-rasm) Toshoyna ustida ganch o'ymakorligi



(21-rasm) Ravoq




(22-rasm) Tokcha




(23-rasm) Burchak naqshi



(24-rasm) Namoyon



(25-rasm)



(26-rasm)Grih



(27-rasm) Grih



(28-rasm)

Mundarija

№	Bob va bo'limlarni nomlari	Hajmi
Kirish	O'zbek xalq amaliy bezak san'ati tarixi va mustaqillikdan keyingi rivojlanishi	4-7 betlar
I.BOB.	Ganch o'ymakorligi san'atining milliy me'morchiligimizda tutgan o'rni	
1.1.	Ganch o'ymakorligi san'atining tarixi	8-10 betlar
1.2.	Ganch o'ymakorligi maktablari	10-15 betlar
1.3.	Interer va ekstrerd ganch o'ymakorligi kompozitsiyalarini qo'llash	15-17 betlar
1.4.	Ganch o'ymakorligi san'atida rangshunoslikning muhimligi	17-24 betlar
1.5.	Ganch o'ymakorligida ishlatiladigan xomashyolar.	24-32 betlar
II.BOB	Ganch o'ymakorligi san'atidan foydalanib intererni bezatish, ishlatiladigan naqsh turlari va kompozitsiya chizishning asosiy qoidalari.	
2.1.	Kompozitsiya haqida asosiy ma'lumotlar	32-35 betlar
2.2.	Kompozitsiyada yorug'lik, nur va soya	36-37 betlar
2.3.	Kompozitsiya tuzishda ishlatiladigan naqsh elementlari	37-40 betlar
2.4.	Kompozitsiya turlari, naqsh chizishning asosiy qoidalari	40-52 betlar
2.5.	Intererda ishlatiladigan bezaklardan tokchalarni yasash texnologiyasi	52-56 betlar
2.6.	Ijodiy kompozitsiya bajarish bosqichlari	56-59 betlar
III	Xulosa	60-61 betlar
IV	Izohli lug'at	62-63 betlar
V	Adabiyotlar ro'yxati	64- bet
VI	Ilovalar.	65-95 betlar

